



MILLIY ARMIYA – DINA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR



OLG'A BOS,

YENGIB BO'LMAYDIGAN

TO'SIQ YO'Q!



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 20-FEVRAL
№8 (3174)



Milliy iftixor

SOHIBQIRON MILLAT QUDRATI

Amir Temur nafaqat O'zbekiston tarixida, balki jahon tamadduni rivojida ham o'chmas iz qoldirgan buyuk davlat arbobi va sarkardadir. Sohibqiron hukmronligi davrida shaharsozlik, ilmfan, me'morchilik va san'at beqiyos taraqqiy etdi, Samarqand Sharqning yirik ilmiy va madaniy markaziga aylandi.

MEROSI TIMSOLI



Uning davlatchilik va harbiy san'atga oid qarashlari "Temur tuzuklari"da mujassam bo'lib, mazkur qo'llanma asrlar davomida turli xalqlar davlat boshqaruvi tajribasida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda ham Amir Temur merosi nafaqat milliy iftixor manbai, balki jahon tarixini anglashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. **Uning 690 yilligini keng nishonlash, buyuk ajdodimizning boy ma'naviy va siyosiy merosini yanada chuqur o'rganish, uning insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini munosib qadrlash demakdir.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi qarori bilan buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash bo'yicha juda katta va keng qamrovli chora-tadbirlar belgilab berildi. Mazkur qaror nafaqat yubiley sanasini nishonlash, balki sohibqiron merosini chuqur o'rganish, uni yosh avlod qalbiga singdirish va xalqaro miqyosda keng targ'ib etishni maqsad qilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Ushbu qarorni tom ma'noda Amir Temur shaxsiyati va Temuriylar davri merosi milliy davlatchiligimiz, ma'naviy qadriyatlarimiz va Uchinchi Renessans g'oyalarining mustahkam poydevori sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Shu bois yubiley tadbirlari shunchaki muhim sana emas, balki ilmiy, ma'rifiy, madaniy va tashkiliy jihatdan puxta o'ylangan davlat dasturi sifatida amalga oshiriladi.

Keling, qarorda keltirilgan muhim chora-tadbirlarning ba'zilar haqida qisqacha to'xtalib o'tsak.

Avvalo, 2026-yilda Amir Temur tavalludining 690 yilligi respublika va xalqaro darajada keng nishonlanadi. Har yili aprel oyi "**Amir Temur oyligi**" deb e'lon qilinib, uning doirasida maktablar, oliy ta'lim muassasalari, harbiy qismlar, korxona va tashkilotlarda uchrashuvlar, ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi.

Shu bilan birga, 2030-yilgacha mo'ljallangan "yo'l xaritasi" tasdiqlanib, Temuriylar davri tarixini tizimli o'rganish, ilmiy natijalarni keng targ'ib qilish vazifalari belgilandi. **Jumladan:**

- xalqaro ilmiy konferensiya va seminarlar o'tkazish;
- "Temur tuzuklari"ni bir nechta xorijiy tillarda nashr etish;
- "Temuriylar davrining 100 nodir qo'lyozmasi", "Temuriylar davrining 100 nodir durdonasi" kitob-albomlarini yaratish;
- xorijda saqlanayotgan manbalar nusxalarini yurtimizga olib kelish;
- elektron platforma yaratish va tarixiy-hujjatli filmlar namoyishini tashkil etish.

Shuningdek, Toshkent shahridagi Temuriylar tarixi davlat muzeyini rekonstruksiya qilish, raqamlashtirish va zamonaviy ekspozitsiya yaratish ishlari amalga oshiriladi. Amir Temur nomi bilan bog'liq obyektlar va yodgorlik majmualari ta'mirlanadi va obodonlashtiriladi.

Yubiley tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazish uchun tashkiliy qo'mita tuzilib, barcha vazirlik va idoralar faoliyati muvofiqlashtiriladi. Chet ellik mehmonlar ishtirokini ta'minlash, maxsus yubiley tangalari, pochta markalari va esdalik mahsulotlarni chiqarish ham nazarda tutilgan.

Qarorda alohida e'tiborga molik jihatlar biri – Mudofaa vazirligiga ham tegishli vazifalar yuklatilganidir. Xususan, harbiy qismlar va harbiy ta'lim muassasalarida "**Amir Temur oyligi**" doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, sohibqironning sarkarda sifatidagi faoliyatini o'rganish va uning harbiy san'at borasidagi merosini yosh harbiy xizmatchilar ongiga chuqurroq singdirish vazifasi belgilangan. Bu esa milliy armiyamiz ma'naviy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, Prezidentimizning qarori bilan Mudofaa vazirligi qo'shinlari

va bo'linmalari o'rtasida "**Amir Temur jangovar bayrog'i uchun**" musobaqasi yuksak shijoat va jangovar ruhda o'tkazib kelinmoqda.

Musobaqalar bir necha bosqichlarni qamrab oladi. Harbiy xizmatchilar respublika bosqichiga qadar harbiy qism bo'linmalari o'rtasida, harbiy okrug miqyosida g'oliblikni qo'lga kiritish uchun kurash olib boradi. Ikkita bosqichda g'oliblikni qo'lga kiritgach, Mudofaa vazirligi miqyosida g'oliblik uchun kurashadi.

Jumladan, "**Amir Temur jangovar bayrog'i uchun**" musobaqasi g'olibi bo'lgan harbiy okrugga Amir Temur jangovar bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida tantanali ravishda topshirilishi belgilangan.

Umuman olganda, mazkur qarorning muhim g'oyasi sifatida Amir Temur va Temuriylar merosini chuqur o'rganish, uni milliy o'zlik va davlatchilik ramzi sifatida yanada mustahkamlash, yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va fidoyilik ruhida tarbiyalashdan iborat. Shu tariqa yubiley tadbirlari orqali tarixiy merosimizning zamonaviy taraqqiyotimiz bilan uzviy bog'liq ekani yana bir bor namoyon bo'ladi.

**Kapitan
Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"**



QABUL TIZIMI VA IMTIYOZLAR

Ayni paytda Yangi O'zbekistonda vatanparvar, mas'uliyatli va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari ushbu vazifalarni amalga oshiruvchi asosiy tizim sifatida muhim rol o'ynaydi.

2025-yilning 21-fevral kunidagi Xavfsizlik kengashi yig'ilishida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish hamda to'liq transformatsiya qilish bo'yicha topshiriq berildi. Ushbu topshiriqqa muvofiq, ta'lim tizimi to'liq transformatsiya qilinib, Prezidentimizning 2025-yil 29-iyuldagi qaroriga ko'ra, Qurolli Kuchlar akademiyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etilib, barcha oliy harbiy ta'lim muassasalari institut maqomida universitet tarkibiga kiritildi.

Bugungi kunda universitet tarkibida Quruqlikdagi qo'shinlar, Harbiy aviatsiya, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa hamda Harbiy tibbiyot institutlari turli yo'nalishlarda bakalavr va magistr darajasidagi mutaxassislarni tayyorlamoqda.

O'QISHGA KIRISH UCHUN MUROJAAT QILISH TARTIBI

Universitet hamda uning tarkibidagi oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun **fuqaro yoshlar** yashash joyidagi mudofaa ishlari bo'limlariga, **talabalar** tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlari nomiga ariza bilan, **harbiy xizmatchilar** esa xizmat o'tayotgan harbiy qism (*muassasa*)ning komandir (*boshliq*)lari nomiga bildirgi bilan murojaat qiladi. Murojaatlar, qabul yilining **1-fevralidan 31-martigacha** qabul qilinib, nomzodlarning hujjatlari dastlabki saralashdan o'tkaziladi. Hujjat topshirish jarayonida shaxsni tasdiqlovchi va ta'lim to'g'risidagi hujjatlar, tibbiy ko'rikdan o'tganlik haqidagi ma'lumotlar taqdim etilishi talab etiladi.

NOMZODLARNING YOSH CHEGARASI

Oliy harbiy ta'lim muassasalariga qabul qilinuvchi nomzodlar uchun yosh chegarasi ularning toifasiga qarab belgilanadi. Jumladan, **fuqarolar uchun** yosh chegarasi **17 yoshdan 23 yoshgacha** bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining **talabalari uchun** yosh chegarasi **26 yoshgacha** bo'lgan, shuningdek ofitserlar tarkibi harbiy unvonlariga ega bo'lmagan **harbiy xizmatchilar** va **harbiy xizmatga majburlar** uchun esa **18 yoshdan 25 yoshgacha** bo'lgan yosh chegarasi amal qiladi. Bu yondashuv harbiy tajribaga ega nomzodlarning bilim va salohiyatidan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

QABUL QILISH BOSQICHLARI VA DAVOMIYLIGI

Qabul jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Xususan, dastlabki saralab olish tadbirlari **ikki bosqichda** o'tkaziladi.

Birinchi bosqich **1-fevraldan 10-aprelga** qadar **fuqarolar** uchun mudofaa ishlari bo'limlarida, harbiy xizmatchilar uchun esa xizmatni o'tash joyida, **hujjatlarni qabul qilish** va **o'rganish, yakka tartibda suhbat** hamda **birlamchi tibbiy ko'rikdan o'tkazish** (*talabalar, "Temurbeklar maktabi"* va *"Yosh chegarachilar"* harbiy akademik litseylari bitiruvchilari, harbiy xizmatchilar birlamchi tibbiy ko'rikdan o'tkazilmaydi) shaklida olib boriladi.

Ikkinchi bosqich **11-apreldan 31-mayga** qadar mudofaa ishlari

boshqarmalari va Mudofaa vazirligining harbiy-tibbiy muassasalarida, **individual-psixologik o'rganish, umumjismaniy tayyorgarlikni baholash** (*turnikda tortilish, 100 metr va 3 000 metrga yugurish*), yakuniy tibbiy ko'rik kabi sinovlar o'tkaziladi. Universitetning Harbiy aviatsiya instituti uchuvchilar tarkibiga nomzodlar qo'shimcha ravishda **ingliz va rus tilidan** imtihon topshiradi. Bir bosqichdan muvaffaqiyatli o'ta olmagan nomzodlar keyingi bosqichga qo'yilmaydi!

Dastlabki saralab olish tadbirlaridan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar har yili **iyul-avgust oylarida** o'zi tanlagan hududlarda test sinovlarini topshiradi. Test sinovlarining **aniq muddati** Mudofaa vazirligi hamda Bilim va malakalarni baholash agentligi bilan birgalikda belgilanadi hamda kamida **bir oy oldin** ularning **rasmiy veb-saytlariga** joylashtiriladi.

Nomzodlarga qulayliklar yaratish maqsadida **beshtagacha** fanlar majmuasi va ketma-ketligi bir xil bo'lgan **oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini** tanlash huquqi beriladi. Agar nomzod oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirolmagan taqdirda respublika oliy ta'lim muassasalariga tanlangan yo'nalishlar ketma-ketligiga qat'iy rioya qilingan holda **tanlovda ishtirok etadi**. Oliy harbiy ta'lim muassasalariga tavsiya etilgan nomzodlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida **tanlovda ishtirok etmaydi**.

NOMZODLARGA BERILADIGAN IMTIYOZLAR

Qabul jarayonida dastlabki saralab olish tadbirlaridan muvaffaqiyatli o'tgan ayrim toifadagi nomzodlar uchun quyidagicha tartibda alohida imtiyozlar nazarda tutilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan va OHTMga o'qishga imtiyozli kirish uchun harbiy qism qo'mondonligining tegishli tavsianomasiga ega bo'lgan fuqarolarga test sinovi natijalari bo'yicha o'zlari to'plagan ballning **50 foizi** miqdorida **qo'shimcha ball** ko'rinishida imtiyoz beriladi;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar harbiy xizmatchilarining farzandlari ajratilgan **besh foizli** kvota, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya xodimlarining farzandlari ajratilgan **ikki foizli** kvota asosida OHTMga kursantlarning umumiy qabul soni doirasida o'qishga kirish huquqiga ega; harbiy xizmat majburiyatini bajarish chog'ida halok bo'lgan, shuningdek harbiy xizmat majburiyatini bajarishda yarador bo'lishi natijasida nogiron bo'lib qolgan, kontuziya, shikast olgan yoki kasalliklarga duchor bo'lgan Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning harbiy xizmatchilari va Milliy gvardiya xodimlarining farzandlari vazirliklar yoki idoralarning tegishli tavsianomalari asosida belgilangan qabul kvotalaridan tashqari OHTMga **tanlovsiz qabul** qilinadi;

"Ilg'or serjant" nominatsiyasida respublika turining g'oliblari bo'lgan serjantlar OHTMga **test sinovlarisiz** o'qishga kirish huquqiga ega.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining serjantlar tarkibi lavozimlarida 5 yil benuqson xizmat qilgan serjantlarga ijobiy tavsifnomalar, qo'mondonlik, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikda yutuqlari mavjud bo'lgan taqdirda, OHTMga o'qishga qabul qilishda to'planishi mumkin bo'lgan maksimal ballning **20 foizi** miqdorida qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz beriladi;

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari bitiruvchilariga OHTMga o'qishga kirishda Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida o'zlari to'plagan ballarning **30 foizi** miqdoridagi qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz hamda ushbu maktablarni **imtiyozli diplom** bilan tugatgan bitiruvchilarga tarkibida "Temurbeklar maktabi" bo'lgan vazirlik va idoralarning tegishliligi bo'yicha OHTMga **test sinovlarisiz** o'qishga kirish huquqi beriladi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy musiqa akademik litseyi bitiruvchilariga OHTMga o'qishga kirishda Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida o'zlari to'plagan ballarning **30 foizi** miqdorida ball shaklida imtiyoz beriladi;

"Vatan tayanchi" harakatining tegishli tavsianomalari ega bo'lgan a'zolariga OHTMga o'qishga kirishda test sinovlari natijalariga ko'ra, to'plagan ballarining **5 foizi** miqdorida qo'shimcha ball shaklida imtiyoz beriladi;

fan olimpiadalarining respublika bosqichida 1-3-o'rinlarni egallagan shaxslar uch yil muddat davomida amal qiluvchi ixtisoslik fani bo'yicha sertifikat asosida OHTMga test sinovlarida imtiyoz sifatida **maksimal ball** to'plagan hisoblanadi. Shuningdek, Xalqaro matematika olimpiadasi (*IMO*), Xalqaro fizika olimpiadasi (*IPHO*), Xalqaro kimyo olimpiadasi (*ICHO*), Xalqaro biologiya olimpiadasi (*IBO*), Xalqaro informatika olimpiadasi (*IOI*) g'oliblari OHTM qabul komissiyasining qarori bilan OHTMga **test sinovlarisiz** va **qo'shimcha imtihonsiz** o'qishga qabul qilinadi; xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida halok bo'lgan huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining farzandlari OHTMga belgilangan qabul kvotasidan tashqari **test sinovlarisiz** o'qishga qabul qilinadi;

OHTMga kursantlarni qabul qilishning umumiy sonidan "Mehribonlik uyi" va Bolalar shaharchasining bitiruvchilari bo'lgan chin yetimlar uchun qo'shimcha ravishda bir foizgacha qabul kvotalari ajratiladi;

"Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohiblari bo'lgan umumta'lim va professional ta'lim muassasalarining o'quvchilari OHTM qabul komissiyasining qarori bilan tegishli yo'nalish bo'yicha va belgilangan qabul kvotasi doirasida kirish imtihonlarisiz o'qishga qabul qilinadi.



Imtiyozlar qabul komissiyasi tomonidan hujjatlarni tekshirish bosqichida hisobga olinadi va ballar yig'indisiga qo'shiladi. Nomzodlar bir vaqtning o'zida ushbu imtiyozlarning ikki va undan ko'piga ega bo'lgan hollarda **eng yuqori natija beruvchi imtiyoz** qo'llaniladi.

"2+2" MODELI MOHIYATI

Yangi tizim bo'yicha talabalar **dastlabki ikki yil** davomida oliy ta'lim muassasalarida bazaviy bilimlarni egallaydi, **keyingi ikki yil** esa tanlangan mutaxassislik bo'yicha oliy harbiy ta'lim muassasalarida chuqurlashtirilgan tarzda harbiy mutaxassisliklar bo'yicha o'qitiladi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga mutaxassisligi bo'yicha **2 ta diplom** (*fuqarolik va harbiy-kasbiy*) beriladi.

Ushbu modelga asosida o'qitish tizimi universitet Umumqo'shin fakultetining **7 ta** (*psixolog, tarbiyachi, RKBM (radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza qo'shinlari), IIV texnik qo'riqlash vositalari, kiyim-kechak, oziq-ovqat, yoqilg'i-moylash*), Quruqlikdagi qo'shinlar institutining **2 ta** (*avtomobil va tank muhandisligi*) hamda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institutining **9 ta** (*aloqachi, axborotlarni kriptografik himoyalash va maxsus aloqa, axborot tizimlari va texnologiyalari, radioelektron razvedka va kurash, HHM radiotexnika va zenit-raketa qo'shinlari, QQ HHM zenit-raketa qo'shinlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi, Chegara qo'shinlari intellektual tizimlari, tarmoq va axborot tizimlarining xavfsizligi*) bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga tatbiq etiladi.

Universitetning Harbiy tibbiyot institutida respublika oliy tibbiy ta'lim muassasalari tibbiy-profilaktika ta'lim yo'nalishining **IV bosqichini** va davolash ishi ta'lim yo'nalishining **V bosqichini** tamomlagan talabalar orasidan **30 yoshgacha** bo'lgan nomzodlar saralab olinadi hamda birinchi yil **bakalavriatda**, ikkinchi yil Qurolli Kuchlar uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha harbiy **internaturada** o'qitiladi.

"2+2" modeli bo'yicha qabul **2026/2027-o'quv yilidan** boshlab Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institutining yuqorida aytib o'tilgan **barcha** yo'nalishlariga hamda universitet Umumqo'shin fakultetining faqatgina xizmat faoliyatini tarbiyaviy psixologik ta'minlash (*psixolog*) ta'lim yo'nalishiga joriy etiladi. Qolgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha nomzodlarni turdosh oliy ta'lim muassasalarining **II bosqichini** tugatgandan so'ng qabul qilish amaliyoti **2027/2028-o'quv yilidan** boshlab joriy etiladi.

Polkovnik Jahongir XAITOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti markaz boshlig'i,
PhD, dotsent.
Katta leytenant
Fayoziddin DAVRONOV,
markaz bosh ilmiy xodimi



Surat tahririyat arxividan olindi

Vatanparvar yoshlar – millat kelajagi

XALQ VA ARMIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatiga alohida to'xtalib o'tdi. Unda ayniqsa yoshlar o'rtasida harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularni vatanparvarlik, sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash, shuningdek xalq bilan armiya o'rtasidagi mustahkam birlik va jipslikni yanada kuchaytirishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilayotgani ta'kidlandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda harbiy xizmat nafaqat muqaddas burch, balki yoshlar uchun hayot maktabi, matonat va mas'uliyat sinovi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, armiya va jamoatchilik o'rtasidagi ochiq muloqot, hamkorlik va o'zaro ishonch muhiti milliy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim omilga aylanmoqda.

Ana shunday ezgu g'oyalar va ustuvor vazifalar negizida yurtimizda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi takomillashtirilib, yosh avlodni ona Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashashga undaydigan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Toshkent harbiy okrugining "Chirchiq" dala-o'quv maydonida okrug qo'mondonligi hamda Yangi O'zbekiston universiteti hamkorligida poytaxtimizda joylashgan oliy ta'lim muassasalarining iqtidorli va faol talabalari ishtirokida "Harbiy qismda bir kun" shiori ostida ekskursiya o'tkazildi.

Unda poytaxtimizda joylashgan oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan "Qalqon" jamoatchilik guruhlarining a'zolaridan iborat 150 nafarga yaqin faol talaba, professor-o'qituvchi, harbiy xizmatchi va ommaviy axborot vositalari xodimi ishtirok etdi.

Dastlab tashrif buyuruvchilarga harbiy xizmatchilar tomonidan jangovar chiqishlar va harbiy kuy-qo'shiqlar namoyish etildi. Maxsus tayyorlangan ko'rgazmali chiqishlar orqali harbiylarning jismoniy tayyorgarligi, jangovar mahorati va jamoaviy harakatlari namoyon bo'ldi. Vatanga sadoqat, mardlik va matonatni tarannum etgan harbiy kuy-qo'shiqlar esa tadbirga alohida ruh va ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Maydonda bir chiziqqa turnadek tizilgan zamonaviy harbiy texnikalar tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Ular ushbu texnikalarning taktik-texnik xususiyatlari, qo'llanilishi va imkoniyatlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Harbiy mutaxassislar tomonidan har bir texnika vositasining vazifasi va ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, talabalarga turli qurol-aslahalar namoyish qilinib, ularning tuzilishi, ishlash tamoyili hamda xavfsiz foydalanish qoidalari tushuntirildi. Bu jarayon yoshlarning nafaqat vatanparvarlik tuyg'ularini, balki harbiy xizmatga bo'lgan hurmat va mas'uliyat hissini ham kuchaytiradi.

Ayniqsa, turli yengil yuklarni tashishga mo'ljallangan zamonaviy dronlar va ularning boshqaruv tizimi tashrif buyuruvchilarning e'tibor markazida bo'ldi. Mutaxassislar dronlarning razvedka, kuzatuv va ularni boshqarish jarayoni hamda zamonaviy armiyada tutgan o'rni haqida atroflicha ma'lumot berdi.

– Bugun men uchun juda hayratlanarli va unutilmas taassurotlarga boy kun bo'ldi, – deydi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 4-bosqich talabasi Ruxshona Rahmatullayeva. – Chunki bugun men nafaqat harbiy xizmatchilarning faoliyati bilan tanishdim, balki yurtimiz tinchligi va xavfsizligi yo'lida xizmat qilayotgan fidoyi insonlar bilan yuzma-yuz muloqot qilish imkoniga ham ega bo'ldim. Ularning hayot



yo'li, kasbiga sadoqati, Vatanga muhabbati va mas'uliyat tuyg'usi menda katta taassurot qoldirdi.

Ayniqsa, **harbiy qismda yaratilgan shart-sharoitlar, zamonaviy texnika va qurol-aslahalar, harbiy xizmatchilarning bilim va mahoratini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar meni hayratga soldi.** Bu yerda intizom, tartib va hamjihatlik ustuvor ekanini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan ishlar yuqori saviyada tashkil etilganiga guvoh bo'ldim. Bugungi uchrashuv dunyoqarashimni yanada kengaytirdi, kelajakda yurtimiz ravnaqi uchun munosib hissa qo'shish mas'uliyatini yanada chuqurroq anglashimga turtki berdi. Bunday tadbirlar yoshlarda Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirib, ularni faol, tashabbuskor va yurtparvar shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi, deb o'ylayman.

Talabalar jangovar texnikalar, zamonaviy dronlar va turli qurol-aslahalarning texnik-taktik xususiyatlari bilan yaqindan tanishganlaridan so'ng jamoaviy sport musobaqalari tashkil etildi. Bu jarayon nazariy bilimlarni mustahkamlash, yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish hamda harbiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratildi.

Jumladan, turnikda tortilish va tosh ko'tarish shartlari ishtirokchilarning jismoniy chidamliligini, kuch-quvvati va irodasini sinovdan o'tkazdi. Qurollarni belgilangan vaqtda to'g'ri va xavfsiz tartibda sochib-yig'ish sharti esa ulardan nafaqat tezkorlik, balki aniqlik, texnik bilim va yuksak mas'uliyatni talab



BIR TAN-U BIR JON



Muallif suratga olgan

qildi. Pnevmatik qurollardan nishonga o'q uzish jarayonida ishtirokchilarning diqqat-e'tibori, qo'l barqarorligi va ruhiy bardoshi alohida ahamiyat kasb etdi. Arqon tortish musobaqasi esa jamoaviy hamjihatlik, o'zaro ishonch va bir maqsad yo'lida birlashishning yorqin namunasiga aylandi. Har bir shart puxta tayyorgarlik va intizom asosida o'tkazilib, talabalar uchun amaliy tajriba maktabi vazifasini bajardi.

Musobaqalar davomida talabalar nafaqat jismoniy mahoratini namoyon etdi, balki jamoa tarkibida harakatlanish, mas'uliyatni bo'lishish va bir-birini ruhlantirish ko'nikmalarini ham mustahkamladi. Qizg'in bellashuvlar jarayonida o'zaro raqobat bilan bir qatorda do'stona muhit va sog'lom ruh ustuvor bo'ldi.

Bunday tadbirlar yoshlarda qat'iyat, jasorat va intizom kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilib, ularning vatanparvarlik tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ishtirokchilarda harbiy sohaga qiziqish uyg'onib, jismoniy hamda ma'naviy tayyorgarlikni oshirishga bo'lgan intilish yanada kuchaydi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Buning isbotini esa ularning ko'zlaridan bilish qiyin emas.

– Bugungi tadbir chin ma'noda yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yanada mustahkamlash, ularning Vatan oldidagi burchi



va mas'uliyatini chuqurroq anglash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi, – deydi kapitan Abdurashid Rahmonov. – Ayniqsa, nazariy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlar va sport musobaqalarining uyg'unlashtirilgani tadbir samaradorligini yanada oshirdi. Talabalar jangovar texnikalar, dron va qurol-aslahalar haqida olgan ma'lumotlarini amalda sinab ko'rish imkoniyatiga ham ega bo'ldi. Shu bilan birga, turnikda tortilish, tosh ko'tarish, qurollarni belgilangan vaqtda sochib-yig'ish, pnevmatik qurollardan nishonga o'q uzish hamda arqon tortish kabi sport bellashuvlari yoshlarning jismoniy tayyorgarligi, chidamliligi va jamoaviy hamjihatligini yanada mustahkamladi. Ayniqsa, jamoaviy shartlarda o'zaro ishonch, bir-birini qo'llab-quvvatlash va umumiy maqsad sari intilish kabi fazilatlar yaqqol namoyon bo'ldi.

Bunday musobaqalar nafaqat sog'lom raqobat muhitini yaratadi, balki yoshlarning ruhiy bardoshi, qat'iyati va intizomini ham sinovdan o'tkazadi. Eng muhimi, tadbir davomida ishtirokchilar Vatan himoyasiga tayyor turish faqat bilim bilan emas, balki mustahkam jismoniy tayyorgarlik, kuchli iroda va jamoaviy birdamlik bilan ta'minlanishini amalda his qildi.

Tadbir davomida talaba-yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini yanada mustahkamlash, ularda milliy g'urur, fuqarolik pozitsiyasi va yuksak mas'uliyat hissini shakllantirish maqsadida davra suhbat tashkil etildi. Unda ishtirokchilar kun davomida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar, sport musobaqalari va harbiy texnika, qurol-aslahalar ko'rgazmalaridan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlashdi.

Suhbat jarayonida ona Vatanga sadoqat, ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan boy tarixiy va ma'naviy qadriyatlarga hurmat, yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikning beqiyos ahamiyati, shuningdek globallashuv sharoitida yoshlar oldida turgan vazifalar xususida atroflicha fikr almashildi. Ta'kidlanganidek, **bugungi kunda bilimli, keng dunyoqarashga ega, jismonan va ma'nan barkamol avlodni tarbiyalash mamlakat taraqqiyotining muhim shartidir.** Yoshlar esa yurt taqdiriga befarq bo'lmasdan, o'z bilim va salohiyati bilan Vatan ravnaqiga hissa qo'shishi lozimligi qayd etildi.

Davra suhbat davomida talabalar o'z fikr va tashabbuslari bilan bo'lishib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga munosabatini bildirdi. Shuningdek, ular harbiy sohadagi yangilanishlar, yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar hamda sport va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati haqida mulohazalarini bayon qildi. Bu ochiq muloqot yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

Uchrashuvning yana bir muhim jihati kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilganidir. Qayd etilganidek, mutolaa inson tafakkurini o'stiradi, uning ma'naviy dunyosini boyitadi va hayotiy qarashlarini shakllantiradi. Shu bois yoshlarni badiiy va ma'rifiy adabiyotlarga keng jalb etish, ularda muntazam kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri ekani ta'kidlandi.

Suhbat yakunida faol ishtirok etgan, dolzarb fikrlari va tashabbuskorligi bilan ajralib turgan talabalarga Yozuvchilar uyushmasi tomonidan turli badiiy adabiyotlar taqdim etildi.

Shundan so'ng harbiy qismda talabalar ishtirokida tashkil etilgan musobaqalarda faol qatnashib, yuqori natijalarni qayd etgan yoshlar Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi tomonidan diplom, turli badiiy adabiyotlar to'plami va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Bunday e'tirof yoshlar uchun nafaqat rag'bat, balki ularning kelgusida yanada yuqori marra larni zabt etishiga turtki bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, **bunday tadbirlar yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg'ularini yanada mustahkamlash, Vatanga sadoqat, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.** Ayni paytda ularda jamoaviylik, intizom, jasorat va matonat kabi fazilatlar qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur uchrashuv orqali talabalar harbiy xizmatning sharaflari va mas'uliyatli burch ekanini yana bir bor anglab yetdi. Shu bois kelgusida ham mana shunday tadbirlarni izchil davom ettirish yoshlarni Vatan himoyasiga doimo shay, yuksak ma'naviyatli va fidoyi insonlar etib tarbiyalashga mustahkam zamin yaratadi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”**



Ma'naviyat

MA'RIFAT – QUDRATIMIZ, KITOB – QALBIMIZ QALQONI

Harbiy xizmat faqat saf tortish, mashq yoki postda navbatchilik o'tash bilan cheklanmaydi. U qalb tarbiyasi, ma'naviy poydevor, fikr va tafakkurning yuksalish maktabidir. Bugun mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida kitobxonlik madaniyatiga berilayotgan e'tibor ana shu yuksak maqsadga xizmat qilmoqda.



Davlatimiz rahbari tomonidan ta'kidlanganidek, harbiy xizmatchining jangovar shayligi qanchalik muhim bo'lsa, uning ma'naviy olami ham shunchalik ahamiyatga ega. Zero qurol yurt sarhadini muhofaza qilsa, kitob qalb sarhadini qo'riqlaydi.

Bugungi maqolamizda kitoblardan so'z ochar ekanmiz, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti axborot-resurs markazi misolida qalb va jasoratni birlashtirgan ma'naviy maskan haqida hikoya qilamiz.

Yuz yillik shonli yo'lni bosib o'tgan universitetning axborot-resurs markazi oddiy maskan sanalmaydi. Bu yerga kelgan borki, fikrlar qaynayotgani, orzular shakllanayotgani, tafakkur charxlanayotganiga guvoh bo'ladi.

Markazda bir necha tarmoq kutubxonalar askar va kursantlar, tinglovchilar, ilmiy tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar hamda Qurolli Kuchlar xizmatchilari uchun axborot xizmatini ko'rsatadi. Badiiy, o'quv adabiyotlar hamda elektron adabiyotlar kutubxonalari – har biri aniq tizim asosida ishlaydi. Kitoblar tartib bilan joylashtirilgan, qidiruv jarayoni raqamlashtirilgan. Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan keng islohotlar zahirida universitet markazida zamonaviy talablarga javob beradigan shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, kitobxonlar bo'sh vaqtlarida keng va shinam o'quv zalida bimalol mutolaa bilan shug'ullanadi. Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar orqali kursant va ofitserlar Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona elektron resurslari hamda Ziyonet portali va shu kabi foydali axborot saytlaridan foydalanish imkoniga ega.

Yuz mingdan ortiq harbiy sohaga doir texnik va maxsus adabiyotlar,

jahon va o'zbek adabiyoti, turli yo'nalishdagi gazeta va jurnallar xazinasini asrab kelayotgan kutubxonaning o'quv adabiyotlar arxivida 1900-yillardan boshlab chop etilgan bir asrlik kitoblar ham saqlanayotgani ushbu axborot-resurs markazining nufuzi va qiymatini oshiradi, desak, hech ham mubolag'a bo'lmaydi.

– Bizning vazifamiz faqat kitob berish emas, – deydi Qurolli Kuchlar xizmatchisi Kamola Shermatova. – Biz har bir talabaga kerakli adabiyotni topib berishga, ularni mutolaa qiziqtirishga harakat qilamiz. Yozuvchi va shoirlar ishtirokida kitob taqdimotlari, ijodiy uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etamiz. Ushbu tadbirlar kursantlarning ma'nan o'sishiga xizmat qiladi.

Markaz xodimlari o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadi. Kitob fondini asrash, yangilash, tadbirlarni puxta tashkil etish – bularning barchasi katta mehnat talab qiladi. Ular uchun kutubxonachilik oddiy kasb emas, ma'rifat xizmati. Xodim ta'kidlashicha, kutubxonadan nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ularning oila a'zolari ham foydalanadi.

– Kutubxonadan oilalar ham bimalol foydalana olishi bizlarni ham quvontiradi, – deydi universitet harbiy xizmatchilar oilalari va xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassisi Dildora Abdurahmonova. – O'zim ham harbiyning oilasi sifatida farzandlarim bilan kutubxona xizmatidan tez-tez foydalanib turamiz. Ushbu maskanda nafaqat

o'zbek, balki dunyoning eng mashhur yozuvchilari tomonidan yaratilgan nodir adabiyotlarni topish imkoni bor. Bilasizmi, ma'rifat butun oilani birlashtiradi. Harbiy oilalarning ma'naviy muhiti mustahkamlanishi bizning ham yutug'imiz, shunday ekan, kitob o'qishdan to'xtamaslik kerak.

Markaz faoliyati bilan tanishish chog'ida o'quv zalida yaqindagina "Oliy Bosh Qo'mondon" davlat stipendiyasi sohibiga aylangan kursant Hosilbek G'ofurjonovni ham uchratdik. Bu ayni muddao bo'lib, qahramonimizni suhbatga chorladik.

– Bir paytlar vaqtimning ko'p qismi televizor tomoshasi bilan o'tardi, – deydi u. – Bir kuni televizorda Prezidentimizning: "Bugun kitob o'qigan bir bola ertaga televizor ko'rgan o'n bolani boshqaradi", degan gaplarini eshitib qoldim. Shu so'zlar qalbiga olov yoqdi. O'sha kundan boshlab kitobga oshno tutindim. Ishonasizmi, hayotim 360 darajaga o'zgardi. Kitob ortidan ilm eshiklarini ochdim, o'qishga kirdim. "Oliy Bosh Qo'mondon" davlat stipendiyasiga munosib topilishimda ham asli kitoblarning o'rni beqiyos. Kitob ortidan fikrim teranlashdi, nutqim ravonlashdi, maqsadlarim aniqlashdi.

Hosilbek bilan qisqa suhbatimiz mazmunli o'tdi. Shu orada zamonaviy kitobxonlar haqida ham gaplashishga ulgurdik. "Mutolaa" loyihasi orqali o'qigan va tinglagan kitoblari haqida so'zlab berdi. Kitoblar haqida so'z borarkan, uning ko'zlarida ishonch porlardi. Bu ishonch mutolaa bergan ishonch.

– Kutubxonada kursantlar ko'pligiga e'tibor berdingizmi? – dedi xayrlashar chog'imiz. – Endilikda eng yaxshi kitobxonlar "Oliy Bosh Qo'mondon" stipendiyasi uchun kurashadi. Ming bir askardan bittasi oliy mukofotni qo'lga kiritishi mumkin, lekin kitob o'qigan to'qqiz yuz to'qson to'qqiz askar hech narsa yo'qotmaydi, o'qigan kitoblari hayoti davomida bu kabi yutuqlar uchun yanada ko'p imkoniyatlarni tuhfa etadi. Jasorat faqat jismoniy kuch emas. Er yigitga ongli jasorat o'ta muhim. Kitob ongni charxlaydi, qaror qabul qilishda teranlik beradi.

Universitet dargohida Hosilbek kabi kitobxon kursantlarning ko'pligidan quvonasiz. Jismonan baquvvat, ma'nan yetuk harbiy kadrlar ertamizning ishonchli egalari bo'lib, dunyo arenasida O'zbekiston armiyasini yanada yuqori pog'onalariga olib chiqishining mustahkam kafolatidir.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkin, bugungi kunda harbiy kutubxonalar faoliyati izchil takomillashib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilmoqda, elektron bazalar yaratilmoqda, kitobxonlik tanlovlari o'tkazilmoqda. Bu ishlar zahirida bir ulug' maqsad bor: bilimli, tafakkurli, ma'naviy barkamol Vatan himoyachisini tarbiyalash.

Qalbda uyg'ongan orzu qo'ldagi qurolga kuch beradi. Ma'rifat bilan sug'orilgan qalb esa Vatan osmonini yanada musaffo qiladi. Shu bois har bir harbiy xizmatchi uchun kutubxona safdosh, kitob esa sadoqatli do'stdir.

Shohista ABDURAHMONOVA,
Qurolli Kuchlar xizmatchisi,
jurnalist



Kelajak loyihasi

MUDDATLI HARBIY XIZMATNING YANGI MODELI

Joriy yilning 13-yanvar sanasida davlatimiz rahbari raisligida bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashi yig'ilishida milliy armiyamizni yanada rivojlantirish, harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha kelajak loyihasining tashabbusi ilgari surildi. Yigittlik burchini o'tash yoshlar uchun kelgusi hayot yo'lida muvaffaqiyat garoviga aylanishi kerakligi ta'kidlandi va uning zahirida muddatli harbiy xizmatning yangi modelini shakllantirish borasida tegishli topshiriqlar belgilandi.



Endilikda bu loyiha orqali xizmat davomida ular kasb-hunarga o'qitiladi va armiyadan qaytgan yoshlar aniq sohaga yo'naltirilgan kasbiy ko'nikmaga ega bo'ladi.

Keling, shu o'rinda askarning kun tartibini ko'z oldimizga keltirib ko'raylik. Ertalabki badantarbiya, saf ko'rigi, nonushta, nazariy dars jarayoni, jangovar, jismoniy hamda ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlar, tushlik, kechki ovqat va yo'qlama, gigiyenik soat, dam olish vaqti va hokazo. Shundan kelib chiqqan holda muddatli harbiy xizmatchining kasb-hunar o'rganishga vaqti qoladimi, degan haqli savol tug'iladi. Iloji bor ekan. Qalovini topsa, qor ham yonadi, deb bejiz aytishmaydi. Biz bunga Farg'ona shahri 4-son texnikum va Farg'ona garnizonida joylashgan harbiy qismlardan biri misolida guvoh bo'ldik.

O'qitish tizimidagi jarayonlar bilan tanishish maqsadida harbiy qismga kirib borganimizda kun tartibi odatdagidek davom etardi. Badantarbiya, saf ko'rigi, nonushta, nazariy dars jarayonidan keyin tushlik, jangovar, jismoniy va ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlar bilan kunning ikkinchi yarmi ham o'tib borardi. Kasbga o'qitish mashg'ulotlari-chi? U qachon tashkillashtiriladi? Komandirlar xayolimizda kechgan savollarni anglagandek, "Texnikumga 14.00 dan keyin jo'namiz. U yerdagi darslarimiz ta'lim maskani talabalariga xalaqit bermasligi kerak. Tartib-qoida shunaqa", deb qoldi. Qoyil! Biz nazardan qochirgan harbiy tartib-intizom hamma joyda maqsadga muvofiq kelishini ana shunda yana bir marta anglab yetdik.

Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni o'rinbosari polkovnik Mehriddin Qo'chqorovning ma'lumot berishicha, hozirgi kunda Farg'ona garnizonida yigittlik burchini o'tayotgan muddatli harbiy xizmatchilarni ikki oy davomida kasb-hunarga, qolaversa chet tillarga o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Buning uchun kasbiy ta'lim Farg'ona viloyati boshqarmasi negizidagi 67 ta texnikum va kasb-hunar markazi bilan hamkorlikda rejalari ishlab chiqilmoqda. Texnikum va kasb-hunar markazlari imkoniyatlaridan

foydalangan holda muddatli harbiy xizmatchilar chilangar, payvandlovchi, kompyuter texnikasi operatori, marketing mutaxassisi, kadrlar va maxsus ishlar bo'yicha inspektor, avtochilangar, AutoCad dasturchisi, sartarosh hamda elektromontyor kabi o'ndan ortiq yo'nalishda o'qitiladi. Shuningdek, okrug hududida joylashgan Andijon va Namangan viloyatlarida ham muddatli harbiy xizmatchilarni aynan shu yo'nalishda o'qitishni yo'lga qo'yish ishlari bosqichma-bosqich olib borilyapti.

– Muddatli harbiy xizmatchilarni kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish mutlaqo rasmiyatchilik uchun emas, – deydi polkovnik Mehriddin Qo'chqorov.

– Negaki, harbiy xizmatchilarning to'garaklarga tanlab olinishi ularning qiziqishi va armiyaga qadar shug'ullangan ishidan kelib chiqqan holda amalga oshirilyapti. Bir so'z bilan aytganda, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondonining tashabbusi bo'lmish kelajak poydevoriga qo'yiladigan "g'ishtni qolipdan ko'chirish" jarayonini imkon darajasida hamkorlikda amalga oshiryapmiz. O'sha "g'ishtlar"ni malakali ustozlar ko'magida pishitish lozim. Shuning uchun hozirgi kunda Farg'ona garnizonidagi harbiy qismlarda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar shahardagi 4-son texnikumda kasb-hunar va xorijiy tillarni o'rganishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarni boshlab yuborgan. Kelgusida muddatli harbiy xizmatchilarni nafaqat kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish, balki ularga oliy ta'lim muassasalariga tayyorlanish imkoniyati ham yaratib beriladi.

Texnikum direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari Mirjalol Ahmadjonov esa bugun harbiy xizmatchilarga ham xizmat qilish, ham kasb egallash imkoni berilgani ular orqali jamiyatga sezilarli manfaat keltirishini ta'kidladi. Uning aytishicha, texnikumga eng oxirgi rusedagi dastgohlar keltirilgan. Xalqaro ta'lim dasturiga tushgan to'rtta

yo'nalishda yuzdan ortiq askarga malakali, ilmiy darajasi bor o'qituvchilar dars beryapti. Bu esa askarlarning bo'sh vaqtini foydali tashkil etish, kelgusidagi kasbiy faoliyatiga mustahkam poydevor yaratadi

hamda harbiy xizmatdan keyingi hayotga moslashuvini osonlashtiradi.

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Shahboz Xoliqov AT va harbiy xizmatda kerak bo'ladigan kiberxavfsizlik bo'yicha malaka oshiryapti. U yaratilayotgan bugungi sharoitlar yoshlarning armiyaga qiziqishini oshirishga xizmat qilishi haqida ishonch bilan gapirdi.

Muddatli harbiy xizmatchilarni mehnat bozorida talab yuqori kasblarga yo'naltirish maqsadida qisqa muddatli o'quv kurslariga jalb etish ishlari barcha hududlarda jadal olib borilyapti. Zero bu o'z vaqtida va to'g'ri o'ylangan ezgu tashabbuslardan biri bo'ldi. Bugun ham harbiy xizmatni o'tab, ham kasb-hunar egasi bo'lib ketish nechog'li manfaatli ekanini yoshlar yaxshi biladi.

Kelajakda Og'abek Xolmirzayevni mohir payvandlash ustasi, Avazbek Norqobilovni sartarosh, Javohir Ro'ziyevni hisobchi yoki tadbirkor, Madyor Madatovni chilangar, Asliddin Hasanovni marketing mutaxassisi, Samandar Azimovni kadrlar va maxsus ishlar bo'yicha inspektor, Sherxon Toshqulovni AutoCad dasturchisi, Og'abek Muxtorovni avtochilangar, Alpomish Abdurazzoqovni elektromontyor sifatida uchratib qolsak, ajablanmaymiz. O'shanda ularni qo'rqmasdan yuqorida aytib o'tilgan loyihaning birinchi qaldirg'ochlari, deya ayta olamiz.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"



Muallif suratga olgan

Tuyg'u

Bugungi murakkab va tezkor zamonda insondan nafaqat jismoniy qudrat, balki mustahkam iroda, yuksak ma'naviyat va chuqur mas'uliyat talab etiladi. Ayniqsa, Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlashdek sharaflı vazifani zimmasiga olgan harbiy xizmatchilar uchun bu fazilatlar hayotiy ahamiyat kasb etadi.

SHUKRONALIK – VATAN HIMOYACHISINING MA'NAVIY QUROLI

Harbiy kuchning asosi qurol-aslaha yoki texnika bilangina belgilanmaydi. Uning tayanchi askar va ofitserning qalbidagi ruhiy barqarorlik, sadoqat va vatanparvarlik tuyg'ularidir.

Ana shunday ma'naviy tayanchlardan biri – shukronalik. **Shukronalik insonni ichdan mustahkamlaydi, unga hayotga ongli qarash, burchini chuqur his etish va mas'uliyatni sidqidildan ado etish imkonini beradi.**

Hayot shoshqaloq, talablar esa tobora ortib bormoqda. Ba'zan inson eng oddiy, ammo bebaho ne'matlarni sezmay ham qoladi. Sog'liq, tinchlik, osoyishta tong, yaqinlarning borligi – bular kundalik hayotda oddiydek tuyuladi. Aslida esa aynan shu ne'matlar hayotning eng katta boyligidir.

Harbiy xizmatchi bu haqiqatni boshqalarga nisbatan chuqurroq anglaydi. Chunki u tinchlikning qadrini xizmat jarayonida, mashg'ulotlar va navbatchiliklarda, mas'uliyatli vazifalarni bajarish davomida his etadi. Shukronalik esa ana shu anglash jarayonini mustahkamlaydi. U insonni befarqlikdan, loqaydlikdan uzoqlashtirib, har bir lahzaning qadriga yetishga o'rgatadi.

Shukr qilgan inson o'z xizmatini majburiyat emas, balki sharaf deb biladi. Bu esa harbiy burchni ado etishda halollik, sadoqat va fidoyilikni kuchaytiradi.

Harbiy xizmat insondan yuqori darajadagi ruhiy tayyorgarlikni talab qiladi. Jismoniy mashqlar, qat'iy intizom, doimiy mas'uliyat, ba'zan esa xavfli vaziyatlar – bularning barchasi inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday sharoitda shukronalik kuchli psixologik himoya vazifasini bajaradi.

Psixologlar ta'kidlashicha, shukronalik tuyg'usi bor insonlar stressga bardoshli bo'ladi, qiyinchiliklarni sokinlik bilan qabul qiladi va vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirishga intiladi. Harbiy xizmatchi uchun bu fazilat ayniqsa muhimdir. Chunki u har qanday vaziyatda o'zini boshqara olishi, tez va to'g'ri qaror qabul qila olishi lozim.

Kun yakunida o'z xizmatiga nazar tashlab, undan ko'ngli to'lgan harbiy ruhiy jihatdan

yengil tortadi. Bu esa ertangi kun vazifalariga yanada kuch va ishonch bilan kirishishga yordam beradi.

Shukronalik inson qalbida sabr, matonat va bardoshlilikni shakllantiradi.

Harbiy xizmat yakka holda emas, jamoa bilan amalga oshiriladi. Bo'linma ichidagi o'zaro ishonch, hurmat va hamjihatlik xizmat samaradorligining muhim omilidir. Shukronalik ana shu muhitni mustahkamlovchi ma'naviy asos hisoblanadi.

Minnatdorlik bilan yashaydigan harbiy safdoshlariga nisbatan mas'uliyatli bo'ladi, yordamga

tayyor turadi, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yadi. Bu esa bo'linma ichida sog'lom ma'naviy muhitni yaratadi, nizolarni kamaytiradi va umumiy maqsad sari birlashtiradi.

Shukronalik komandir va askar o'rtasidagi ishonchni ham mustahkamlaydi. Buyruqlarni ongli ravishda qabul qilish, xizmat talablarini tushunib bajarish aynan shu tuyg'u bilan bog'liq. Natijada intizom, mas'uliyat va xizmat sifati yuksaladi.

Shukronalik tuyg'usi vatanparvarlik bilan chambarchas bog'liq. O'z yurtining tinchligi,

mustaqilligi va kelajagi uchun xizmat qilayotgan harbiy bu mas'uliyatni chuqur anglab yetsa, uning qalbida Vatanga bo'lgan muhabbat yanada mustahkamlanadi.

Bugungi osoyishtalik, mustaqil hayot va tinch osmon o'z-o'zidan berilmagan. Bu ne'matlar ajdodlarimizning jasorati, fidoyiligi va mashaqqatli mehnati evaziga qo'lga kiritilgan. Ana shu tarixiy haqiqatni anglash shukronalikni yanada chuqurlashtiradi.

Shukronalik harbiyni mas'uliyatli qiladi. U o'ziga topshirilgan vazifani Vatan ishonchi sifatida qabul qiladi. Bu esa xizmatga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartiradi: burch sharafiga, majburiyat esa vijdon masalasiga aylanadi.

Shukronalik tug'ma sifat emas, balki tarbiya va odat orqali rivojlanadigan fazilatdir. Harbiy hayotda uni shakllantirish uchun murakkab shart-sharoit talab etilmaydi. Eng muhimi – ongli yondashuv va ichki intizomdir.

Har bir xizmat kunini ijobiy fikr bilan boshlash, bajarilgan vazifalardan xulosa chiqarish, kichik yutuqlarni qadrlash shukronalikni kuchaytiradi. Kun oxirida o'z xizmatiga baho berish, erishilgan natijalar uchun minnatdor bo'lish harbiyning ichki dunyosini boyitadi.

Bu jarayon askarni ruhiy jihatdan ulg'aytiradi, uni yanada mas'uliyatli, vazmin va matonatli shaxs sifatida shakllantiradi.

Shukronalik Vatan himoyachisining qalbidagi eng kuchli ma'naviy quroldir. U harbiy xizmatchini ruhan mustahkamlaydi, xizmatga bo'lgan sadoqatini oshiradi va har qanday sinovlarni mardonavor yengib o'tishga undaydi.

Har bir tinch tong, har bir muvaffaqiyatli xizmat kuni, har bir ishonch shukr aytishga arzigulik ne'matdir. Shukronalikni hayot tarziga aylantirgan harbiy nafaqat o'z burchini sharaf bilan ado etadi, balki jamiyat uchun ibratli shaxsga aylanadi.

Shukronalik tuyg'u emas, bu mas'uliyatdir. Bu – sadoqat. Bu – Vatanga bo'lgan chin muhabbatning yuksak ifodasi. Ana shunday ruhdagi Vatan himoyachilari bor ekan, yurtimiz tinchligi va kelajagi ishonchli qo'llarda bo'ladi.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh mutaxassisi



Ajdodlar merosi



“BIR SUT PISHIMI”, “OT MINISHCHALIK FURSAT” — BOBUR MIRZONING HAYOTIY O‘LCHOVLARI

Har bir davrning o‘z o‘lchovi, tosh-tarozusi, muxtasar qilib aytganda, “qarichi” bo‘lishi tabiiy. Ularni har kim o‘z madaniyati, hududi, turmush tarziga muvofiq yaratadi. Shu bois o‘lchov birliklari shunchaki miqdor va vaqtni bildiruvchi topilma emas, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy ong darajasini ko‘rsatib turuvchi mayoqdir.

Yaqin-yaqingacha Turon xalqlari tilida bir-biridan boy va qadimiy o‘lchov birliklari mavjud bo‘lgan. Tanob, botmon, pud, misqol, qadoq, chorak, quloch, qarich, qadam, gaz, ziro, uqiya, unsiya, sotix, chilla kabi birliklarni jilla qursa, bir asr muqaddam bitilgan shoir va yozuvchilarning kitoblari o‘qigansiz.

Ulardan eng qadimiylari, shubhasiz inson tanasiga bog‘langan qarich, quloch, qadam singari birliklardir. So‘ng savdo bilan bog‘liq atamalar (*botmon, misqol, qadoq*) bozor madaniyatini, masofaga oid birliklar (*farsax, chaqirim*) esa safar madaniyatini aks ettiradi. “Chilla”, “qahraton”, “ayoz” kabi birliklar insonning tabiat bilan uyg‘unligini ifoda etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma”dagi o‘lchov va vaqt birliklari barchamiz uchun muhim va ishonarli manbadir.

Memuarda uchraydigan vaqt va masofa birliklari, hayotiy misollar orqali sharhlangan quyma iboralar bizga o‘sha davr mezonlari haqida muhim yangiliklarni bera oladi. Eng ahamiyatlisi, Bobur Mirzo ularni shunchaki til birligi sifatida qo‘llamaydi, aksincha mazmunini kengroq ochadi, qiyos qiladi, zarur o‘rinda izoh beradi.

Avvalo, “gariy” tushunchasiga e‘tibor qilaylik. U taxminan 20–25 minutga teng vaqt oraliq‘ini anglatadi. Memuarda shunday yoziladi:

“Kechasilari uyqudan uyg‘ongan kishilarga uch gariy yoki to‘rt gariyning bongi eshitilsa, bu ikkinchi paharmi yoki uchinchi paharmi, bilolmay qolardilar. Men tungi gariylarni va bulutli kunlardagi gariylarni qoqqandan so‘ng paharning belgisini qoqishlarini buyurdim”.

Iqtibosdan anglashiladiki, “gariy” kundalik hayotda vaqtni belgilovchi soat vazifasini bajargan. Bunga Bobur Mirzoning shaxsan aralashuvi esa saroydagi tartib-intizom, navbatchilik, ish tartibidagi ayrim chalkashliklarni bartaraf etilishida muhim rol o‘ynagan. “Qoqishlarini buyurdim” degan jumla esa vaqtni tartibga solish davlat boshqaruvining bir qismiga aylanganini ko‘rsatadi.

Asarda “pahar” tushunchasini ham ko‘plab o‘rinda uchratamiz. Kecha va kunduzning to‘rt qismga bo‘lish an‘anasi haqida aytar ekan, Bobur Mirzo buni Hindiston tajribasi bilan qiyoslab, farqlarni tushuntiradi:

“Hindiston eli kecha-kunduzni oltmish qismga (*bo‘lakka*) bo‘lib, har bir qismni “gari” deb ataydilar. Bundan tashqari, kechani to‘rt, kunduzni ham

to‘rt qismga ajratganlar. Har bir qismni bir “pahar” deb atashadi, forsiyda “pos” bo‘ladi. Bizning taraflarda “pos” va “posbon” so‘zlarini eshitganman, ammo ularning bu xususiyatlari ma‘lum emas edi”.

Bu o‘rinda muallif ikki madaniy muhitdagi vaqt taqsimotini o‘zaro solishtiradi va atamaning mazmunini kengroq sharhlaydi. Qiyos orqali u birlikning nafaqat lug‘aviy ma‘nosini, balki boshqa leksik ma‘nolarini ham ochib beradi.

Bobur Mirzo vaqtni yanada aniqlash uchun qiziosiy usuldan ham foydalanadi:

“Bizning o‘lkalarda kecha-kunduzni yigirma to‘rt qismga ajratib, har bir qismini soat deyishadi va har soatni oltmish qismga bo‘lib, har birini daqiqa deb ataydilar. Bir kecha-kunduz ming to‘rt yuz daqiqa (*minut*) bo‘ladi. Bir daqiqaning (*minutning*) miqdori taxminan olti marta “Fotiha”ni (*“Fotiha” surasini*) “bismillo” bilan o‘qish vaqtiga teng keladi, bir kecha-kunduz esa “Fotiha”ni “bismillo” bilan sakkiz ming olti yuz qirq marta o‘qish vaqtiga teng keladi”.

Bu yerda vaqt quruq matematik hisob-kitoblarga asoslanmay, ma‘naviy e‘tiqod tushunchalari bilan ham chambarchas bog‘lanmoqda. Ya‘ni “Fotiha”ni o‘qish vaqti daqiqaning mezonini sifatida keltirilishi vaqtni shunchaki hisoblash emas, inson qalbini muqaddas kalomlarga bog‘lash, his qildirish falsafasini ham anglatadi.

Muallif qanday mezon haqida so‘zlamasin, uning aniq misoliga ham murojaat qiladi. Masalan, “yig‘och” so‘zini olaylik. U taxminan 8 kilometrga teng bo‘lib, ko‘pincha jug‘rofiy hisob-kitoblarda faol qo‘llaniladi.

“Aksi Andijondan g‘arb sari to‘qqiz yig‘ochlik yo‘lda. Umarshayx Mirzo buni poytaxt qilgan edi”.

“Yig‘och” karvon yo‘llari va harbiy yurishlarda qulay o‘lchov vazifasini bajargan va hududlarning umumiy maydonini anglatishda qo‘l kelgan.

“Karo‘r” va “kuro‘h” kabi birliklar esa iqtisodiy va hududiy o‘lchovni anglatgan. Ayniqsa, “Karo‘r” hisob birligi sifatida davlat moliyasida mustahkam o‘rnashgan:

“Hisori Feruza qal‘asini unga tegishli va tobe bir karo‘rlik viloyati bilan Humoyunga sovg‘a qildim va yana bir karo‘r (*yuz lak*) pul mukofoti ham berdim”.

Ko‘rinib turibdiki, “karo‘r” shunchaki raqamni emas, shohning ochiqqo‘lligi va saltanatning moliyaviy imkoniyatini ham ifodalab kelmoqda. Hudud va katta mablag‘ning bir xil atama bilan berilishi esa ushbu atamaning yirik qiymatiga ham ishora qiladi.

“Boburnoma”da “pahar”, “pos” va “qari” atamalari ham vaqt va masofaning tartibli tizimini ochiqlaydi. Quyidagi jumalarda esa o‘quvchining ko‘z oldiga barchani vaqtdan ogoh etuvchi “qadimgi kurant” namoyon bo‘ladi:

“Agar kunduzdan avvalgi (*kunning birinchi yarmidagi*) pahar tugagan bo‘lsa, jomga tez-tez urganlaridan keyin biroz to‘xtab, keyin bir marta bong uradilar. Ikkinchi pahar tugagan bo‘lsa, tez-tez urganlaridan keyin biroz to‘xtab, ikki bora bong uradilar. Shu singari uchinchisidan keyin uch, to‘rtinchisidan keyin to‘rt bora bong uradilar. Kunduzgi to‘rt pahar tugaganidan keyin ana shu tarzda tunning to‘rt pahari davom etadi”.

Ko‘rinadiki, pahar amalda qo‘llanilgan vaqt tizimi bo‘lib, saroy va qo‘shin hayotida qat‘iy intizomni ta‘minlash bilan birga ularning kun taqsimotida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

“Tungi ikkinchi posga yaqin bir yerga kelib, uyquladik. Kunning birinchi paha-rida chorbog‘ga kelib tushdik”.

“Pos” va “pahar” bir xil vaqt miqdorini bildirsa-da, muallif ularni bir voqea ichida ishlatib, vaqtni yanada aniqlashtiradi.

Shuningdek, qurilish ishlarida balandlik o‘lchovi sifatida “qari” atamasi ham keng qo‘llanilgan:

“Har to‘qqiz kuro‘h masofa yerda balandligi o‘n ikki qari keladigan minora qurib, minora ustiga chordara (*bog‘ o‘rtasida ikki tomonidan darchalar ochib qo‘yib solingan bino*) o‘rnatsinlar. Har o‘n sakkiz kuro‘hda oltita yom otini (*u shahardan bu shaharga xat, xabar yetkazuvchining har bekatda almashtirib minadigan oti*) bog‘lab qo‘ysinlar”.

Misollardan ayonlashadiki, vaqt va masofa birliklari Bobur Mirzo saltanatida davlat, qo‘shin va jamiyat hayotini tartibga soluvchi mezon sifatida namoyon bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

Har qanday o‘qirman, Bobur Mirzoning nafaqat mohir sarkarda va adolatli shoh, balki tengsiz ijodkor ekanini ham bir lahza ham yoddan chiqarmasliklari zarur. Chunki u ayrim o‘lchovlarni o‘z kuzatuvlaridan, tajribalaridan hosil qiladi. Ya‘ni muallif vaqt tushunchasini ilmiy asoslari bilan cheklanib qolmay, xalqchil usullarini ham o‘ylab topadi. “Bir sut pishimi” shunday topilmalardan biridir. Memuarda shunday deyiladi:

“Jahongir Mirzoni bir sut pishimi muddati burunroq quvlab chiqaribdilar. Kishilarimizning yarmi u bilan chiqib ketipti. Shunday ahvolga qaramay, tajribasizlikdan darvozada turib, yaqin bo‘lsa kelsin, yana bir urinib ko‘ramiz degan mazmunda Jahongir Mirzoga kishi yubordik. Ish qo‘ldan ketgan edi”.

“Bir sut pishimi” o‘ziga xos o‘lchov. Sut qaynash yoki pishish jarayoni odatda qisqa muddatni talab qiladi. Demak, bu yerda vaqtning kamligi va vaziyatning tez o‘zgaruvchan tus olishi maishiy turmushdagi jarayon bilan ifodalangani tahsinga sazovor.

Shu kabi “ikki namoz orasigacha” ifodasi ham vaqtni aniq va xolis baholash imkonini beradi:

“Bu tor tog‘ yo‘lidan o‘tib, shu kuni vaqt ikki namoz orasigacha (*quyosh botishiga yaqin*) borib yetmay, bir yerda qo‘ndik”.

Aslida namoz vaqtlarining oralig‘i islom dunyosida aniq va ishonchli me‘yorni anglatib kelgan. Aksar hollarda kun tartibi diniy vaqt tizimiga mos holda tashkil etilishi ham ota-bobolarimizning ruhiy olamini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan.

Jang-jadallar ham Bobur Mirzoning vaqt o‘lchovlariga o‘ziga xos tarzda ta‘sir o‘tkaza olgan. “Boburnoma”ni o‘qir ekansiz, ikki jangovar holat e‘tiboringizni tortmay qolmaydi. Ulardan biri “ot minishchalik fursat”. Bilamiz, epchil va chayir jangchi bir sakrashda otga mina oladi. Bu go‘yo tez fursatda sodir bo‘ladigan jarayon singari namoyon bo‘ladi. Parcha o‘qiymiz:

“Undan keyin Humoyun bilan Komron xabar topib, ot minishchalik fursat o‘tmasidan kelib, tanqo‘riqchilariga ko‘tartirib, shahar darvozasi bilan ark darvozasi o‘rtasiga kelib, hurmat ko‘rsatdilar”.

Vaqtning otga minishga ketadigan lahza bilan o‘lchanayotgani – bu alohida topqirlik, muallif tabiatidagi ulkan sezgi va kuzatuv namunasini.

Ikkinchi jangovar ibora ham shoshilinch va tezkorlikni anglatadi:

“Bayroqdorning bayroq bog‘laguncha fursati bo‘lmadi, bayroqni qo‘liga olib otlandi. Yov kelayotgan tomonga qarab jo‘nadik”.

Bu yerda ham vaqt muayyan daraja, ya‘ni bayroq bog‘lash jarayoni bilan chegaralanadi. Demak, vaziyat shoshilinch bo‘lganda ham ushbu ibora aytiladi.

Yana bir vaqtli atama sifatida “ikki o‘q otguncha fursat”ni keltirishimiz mumkin:

“Yana sadoqqa solguncha ikki o‘q otguncha fursat o‘tdi, chamamda. Yana bir o‘qni paypaslab olib ilgariroq yurdim”.

Bu yerda vaqt jangdagi tabiiy harakatlar bilan o‘lchanmoqda. O‘q otish jarayoni qisqa muddatni anglatadi, shu orqali voqea rivojining jadalligi aniq ifoda etilmoqda.

Memuarda “Bir o‘q otimi” iborasi ham o‘lchov birligi sifatida uchraydi. Agar kamon o‘qi nazarda tutilgan bo‘lsa, tasavvuringizni shu masofagacha bemalol to‘g‘rilayvering. Ushbu o‘lchovni yanada aniqlashtirish uchun muallif jonli misollarga murojaat qiladi:

“Shunday ehtiyotkorlik qilinar ediki, jangovar safning o‘ng qanot, chap qanot, markaz, hujumchi qismlarining har qaysisi o‘ziga tegishli joyda turib, har bir qismning qurollangan guruhlar o‘rdaning atrofidagi chodirlardan bir o‘q otimi yiroqroqqa piyoda chiqib, butun kecha o‘sha yerlarda qolar edi”.

Sezganingizdek, yuqorida keltirilgan vaqt birliklarini uch yo‘singa bo‘lish, ehtimol adolatli bo‘lar. Birinchisi, xalq tilidagi birliklar, ikkinchisi, diniy vaqt birliklari, uchinchisi, jangovar me‘yor birliklari. Agar asar shu tartibda o‘qilsa, tahlil qilinsa, hali tilimizga ayon-noayon yana yuzlab o‘lchov birliklarini sinchiklab topish, o‘rganish, keng afkor ommaga taqdim etish mumkin bo‘ladi. Chunki Bobur Mirzo yashagan muhit, diniy e‘tiqod, harbiy va ijtimoiy harakatlar o‘sha davrning kun tartibi, ijtimoiy odoblari va amaliy bilimlarini yirik ko‘lamda ochib berishga xizmat qiladi.

**Kapitan
Bobur ELMURODOV,
“Vatanparvar”,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori**

Chegara qo'shinlarida



BIZ SIZGA ISHONAMIZ!

Muddatli harbiy xizmat – bu er yigitning Vatan oldida o'z yigitlik burchini o'tashi, ota-onasi va yaqinlari ishonchini to'la-to'kis oqlashi. Qolaversa, bu katta mas'uliyat va mustaqil hayot sari qo'yiladigan jiddiy qadamlardan biri hisoblanadi.

Ana shu sharaflı vazifani matonat bilan bajarayotgan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qism va bo'linmalaridagi muddatli harbiy xizmatchilar ham yurtimiz mustaqilligi, sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlash yo'lidagi mashaqqatli va shu bilan birga sharaflı jangovar xizmat vazifalarini ado etish bilan birga ham ma'nan, ham ruhan, ham jismonan toblanib, o'z orzulari sari olg'a qadam tashlamoqda. Buning uchun esa ularga barcha shart-sharoit va qulayliklar yaratilgan.

So'zimizning isbotini respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda beriladigan imtiyozli tavsiyanoma sohibi bo'lish uchun topshirilayotgan test sinovlarida azamat o'g'lonlarimizning jangovar hamda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda namoyon etayotganida ham ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Toshkent, Surxondaryo, Jizzax, Farg'ona, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilgan

mazkur sinovlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlari ishtirok etib, test jarayonlarining ochiq, shaffof tarzda o'tkazilishini nazorat qilib bordi.

– Davlatimiz chegaralarida xizmat qilish bilan bir qatorda test sinovlari uchun ham jiddiy tayyorgarlik ko'rdim. Maqsadim, kelgusida imtiyozli tavsiyanomaga ega bo'lib, harbiy oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish va davlatimiz chegaralarida xizmat faoliyatimni davom ettirish, – deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Bahodir Sobirov.

Ushbu mas'uliyatli va hayajonli daqiqalarda o'g'lonlarning bilimlari 40 ta jangovar tayyorgarlik, 20 ta ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, 10 ta matematika, 10 ta fizika va 20 ta mantiqiy topshiriq bo'yicha tuzilgan jami 100 ta test savoli asosida sinovdan o'tkazildi. Bilimlar sarhisobi sanalgan mazkur sinovlarda barcha askarlar yuqori kayfiyatda ishtirok etdi.

Ta'kidlash kerakki, imtiyozli tavsiyanomalarga ega bo'lgan harbiy xizmatchilar respublikaning oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi tegishli ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirishda test sinovlari natijalariga ko'ra, o'zlari to'plagan ballarining

50 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyozga ega bo'ladi.

Imtiyozli tavsiyanomalar berilgan sanadan boshlab uch yil mobaynida amal qiladi. Bu esa muddatli harbiy xizmatni o'tagan fuqarolarning o'zlari tanlagan oliy ta'lim muassasalarining talabasi bo'lishlari uchun yaratiladigan keng imkoniyat demak.

Biz safimizga qo'shilayotgan yangi bunyodkor kuch bo'lgan yoshlarimizning bilim va salohiyatiga katta ishonch bildirgan holda oldilarida turgan bu dovonni osonlik bilan bosib o'tib, ko'zlagan manzillariga shijoat va shaxt bilan yetib borishlariga tilakdoshmiz.

Mayor
Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi jamiyat hayotiga katta qulayliklar bilan birga jiddiy tahdidlarni ham yuzaga chiqarmoqda. Ayniqsa, turli yolg'on xabarlar, feyk axborotlar, provokatsion materiallar orqali inson ongiga ta'sir o'tkazish holatlari ko'payib borayotganini zamonaviy jang va qurolli to'qnashuvlar fonida kuzatishimiz mumkin. Shunday sharoitda harbiy xizmatchilarning mediasavodxonligini oshirish masalasi bevosita davlat xavfsizligi bilan bog'liq dolzarb vazifa, deb tushunaman.

HARBIY BO'LINMALARDA MEDIASAVODXONLIK



Bugun axborot chinakam qurolga aylandi. Zamonaviy urushlar faqat qurol-yarog' bilan emas, balki axborot orqali ham olib borilmoqda. Noto'g'ri, biryoqlama yoki ataylab buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar orqali jamiyatda ishonchsizlik, vahima va qo'rquv kayfiyatini shakllantirishga urinishlar kuzatiladi. Bunday axborot xurujlari, avvalo, intizomli va hushyor qatlam – harbiylar ongiga ta'sir o'tkazishni maqsad qiladi. Shu bois axborotni tanqidiy qabul qilish har bir harbiy xizmatchining muhim ko'nikmasiga aylanishi lozim.

Mediasavodxonlik – harbiylar uchun zarur ko'nikma. Ijtimoiy tarmoqlardagi apk fayllardan tortib, davlat idoralari tomonidan soxta bildirishnomalar – hammasi firibgar va tovlamachi, uyushgan jinoiy guruhlarining qabih ishlar namunasi. Mediasavodxonlik deganda axborotni izlash, qabul qilish, tahlil etish va tarqatishda ongli va mas'uliyatli yondashuv tushuniladi.

Men harbiy qismimizdagi bo'linmalarning o'quv dasturlariga qo'shimcha ravishda mediasavodxonlik fanini kiritish taklifini berdim. Harbiy bo'linmalarda mediasavodxonlik darslarini joriy etish orqali kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi va askarlarga yolg'on hamda feyk xabarlarini aniqlash usullari va psixologik ta'sir mexanizmlari, shuningdek rasmiy, ishonchli manbalar o'rtasidagi

farqlarni, qolaversa, ijtimoiy tarmoqlarda axborot xavfsizligi qoidalarini bosqichma-bosqich o'rgatish va axborot immunitetini shakllantirishdan iboratdir.

Axborot immuniteti – bu har qanday xabarni shubha bilan qabul qilish emas, balki uni tekshirgan holda xulosa chiqarish madaniyati.

Bunday immunitet quyidagi to'rt tamoyil asosida shakllanadi:

1. Xabar manbasi va muallifiga e'tibor qaratish.
2. Material qachon va qanday sharoitda e'lon qilinganini aniqlash.
3. Faktlar dalil bilan tasdiqlangan yoki yo'qligini tekshirish.
4. Axborotni bir nechta mustaqil manbalar orqali solishtirib ko'rish.

Mazkur yondashuv harbiy xizmatchilarni hissiyotga berilmasdan, vazmin va xolis fikrlashga o'rgatadi.

Shu asnoda yana bir juda tanish bo'lgan ibora "feyk" xabarlar ko'pincha shov-shuvli sarlavhalar, keskin iboralar va bo'rttirilgan tasvirlar orqali tarqaladi. Ularning asosiy maqsadi tezkor reaksiya uyg'otish, odamlarni adashtirish va noto'g'ri qarorlar qabul qilishga undashdir. Mediasavodxon harbiy esa bunday xabarlariga darhol ishonmaydi, balki savol beradi: axborot kim tomonidan va nima maqsadda tarqatilmoqdaligini chuqur mulohaza qiladi.

Mediasavodxonlik bo'yicha mashg'ulotlar faqat nazariy ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy darslar davomida real hayotdan olingan misollar asosida feyk xabarlarini tahlil qilish, fakt-cheking vositalari bilan ishlash, sarlavha va matn mazmuni o'rtasidagi tafovutni aniqlash bo'yicha mashqlar o'tkazilishi, yuqori natija beradi. **Bu harbiylarda axborotni mustaqil tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.**

Mediasavodxonlik askar uchun faqat xizmat jarayonida emas, balki xizmatdan keyingi hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bilimlar orqali u o'z oilasi, yaqinlari va hamkasblarini yolg'on axborot ta'siridan

asrashga hissa qo'shadi, jamiyatda sog'lom axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim lozimki, axborot xurujlari kuchayib borayotgan bugungi murakkab davrda har bir harbiy xizmatchi va askar nafaqat jismonan chiniqqan, balki axborotga nisbatan hushyor va tanqidiy fikrlovchi bo'lishi zarur. Harbiy bo'linmalarda mediasavodxonlik darslarini tizimli ravishda joriy etish, ijtimoiy tarmoqlar olamida feyk va yolg'on xabarlariga qarshi mustahkam immunitetni shakllantiradi. Bu esa Vatan himoyasining yana bir muhim va ishonchli tayanchidir.

Farrux URUNOV,
O'zJOKU talabasi





“YALANG‘OCH QOCHADI, YORG‘OQLI QUVADI”:

XALQ TOPISHMOQLARIDAGI IJTIMOY VA SIYOSIY RAMZLAR



O‘zbek xalqi azaldan donishmand tafakkur sohibi bo‘lib kelgan. Xalq og‘zaki ijodi – dostonlar, matal va maqollar, topishmoqlar, askiya hamda yumorlar elning asrlar davomida to‘plangan hayotiy tajribasi, orzu-intilishlari, alam va iztiroblari, itoat hamda isyonlar orasidagi murakkab ruhiy holatlarining badiiy ifodasi.

Jamiyat hayotida ro‘y bergan biror hodisa yo‘qki, u xalq xotirasida aks etmagan, til qudrati orqali naql, ramz yoki topishmoq shaklida avloddan avlodga o‘tmagan bo‘lsa... Ayniqsa, xalq topishmoqlari ma‘no jihatdan ko‘p qavatli bo‘lib, ularda “bir o‘q bilan ikki quyinni urish” tamoyili ustuvor bo‘ladi. Ya‘ni xalq o‘z dardlarini, ijtimoiy masalalarini, pinhon haqiqatlarini ramzlar vositasida ifoda etadi.

**Mushtlab-mushtlab urarlar,
Muncha gunoh qilibman.
O‘tga solib yoqarlar,
Muncha osi(y) bo‘libman.**



O‘quvchi ramzlar ortida azob chekayotgan inson qiyofasini his etadi, uning ruhiy iztiroblarini ko‘z oldiga keltiradi. Keyingi bandda esa ushbu qayg‘u tasviri zinama-zina ochilib, yashirin ma‘no o‘z qiyofasini namoyon qiladi:

**Muncha meni xorlarlar,
Bilmam, nima qilibman.
Muncha meni sevarlar,
Qanday shirin bo‘libman.**

Topishmoqning javobi oddiygina xamir va non. Biroq bu javob masalaning suratini tashkil etadi, xolos. Aslida ichki ma‘no tashqi ta’sirlardan aziyat chekayotgan xalq turmushining sirli ifodasidir.

Topishmoqlarning qudrati shundaki, ular yakka buyum yoki mavjudotni tasvirlash bilan cheklanib qolmay, balki muayyan ijtimoiy muhitni, hatto mamlakat ichida, tashqarisida sodir bo‘layotgan urush va to‘qnashuvlarning pinhon qatlamlariga ishora qiladi.

Masalan, qaychi haqida aytilgan to‘rt xil topishmoqqa diqqat qilaylik. **Birinchi**

variantda: “Ikki podshoh qon chiqarmay urishadi” deyiladi.


Ikkinchisida: “Ikki botir qilichlashar” degan ibora qo‘llanadi. **Uchinchisida** esa tasvir yanada ramziy tus oladi: “Ikki bo‘ri tog‘da o‘ynar, chang chiqarmay, ikkisi ham bir bosh yeydi, qon chiqarmay”.

Uchala misol markazida ham to‘qnashuv, kurash va raqobat bor, biroq u zo‘ravonliksiz, qon to‘kilmasdan ifoda etiladi. To‘rtinchi variant ham borki, u mazmun va ma‘no jihatdan o‘ziga xoslikka ega: “Fotima-Zuhra urishadi, merosini bo‘lishadi”. Bu yerda jismoniy kurashdan ko‘ra, ijtimoiy ziddiyat, ya‘ni meros va haq talashish masalasi oldinga chiqadi.

Qaychi nafaqat kesuvchi buyum, balki fikrni o‘tkirlashtiruvchi ramz hamdir. Shu ma‘noda u insonni sinchkovroq bo‘lishga, har bir ishora ortida qanday ma‘no yashiringanini anglashga da‘vat etadi.

Eng qizig‘i, bu topishmoqlarni bugungi kunimizdagi axborot hujumlari, dunyo miqyosidagi millatlar va davlatlar o‘rtasidagi nizolar, qonli to‘qnashuvlar, jamiyat ichidagi meros talashish, siyosiy intrigalar va global ziddiyatlar bilan bevosita bog‘lash mumkin.

Yana bir bitikning ichki ma‘no qatlamiga e‘tibor qaratamiz:



**Men ajoyib bir askar
ko‘rdim,
Boshi uzra quvvati.
Ko‘p qavatli, yo‘q
qadri-qimmatini,
Suvli yerni aslo bosmas,
Cho‘lni poymol qilmay
qo‘ymas.**


Bu shunday “askar”ki, uning butun qudrati boshida jamlangan. U suv bilan aslo chiqisha olmaydi, undan o‘lguday qo‘rqadi, qochadi. U quruqlikdagina har qanday dushmani “o‘lja”ga aylantiradi.

Xuddi shu kabi “Ahil bo‘lib yashar doim yetmish mard, tani yonib, elga qiladi xizmat” degan jumllarda ham gugurt ramzi yashiringan: yakka dona ojizdek ko‘rinsa-da, jam bo‘lganida, u el xizmatiga qodir, qurbonlik orqali manfaat keltiruvchi kuch sifatida talqin etiladi.



Xalq mubolag‘a orqali hatto eng kichik va ahamiyatsizdek tuyulgan narsalarga ham kuchli va ta’sirchan ta’rif bera oladi. Masalan, “Shapaloq yurtiga borgan botirning jangda halok bo‘lishi” haqidagi topishmoqni olaylik:

**O‘zi yo‘qday, botirim,
Ovozi o‘qday, botirim,
Shapaloq yurtga borib,
O‘lib qolgan, botirim.**



Bu yerda pashsha zohiran arziyas, deyarli “yo‘qday” mavjudot sifatida tasvirlansa-da, uning ovozi o‘qqa qiyoslanib, insonga bezovta qiluvchi, hatto halokatli ta’sir ko‘rsatuvchi kuch sifatida talqin etiladi.

Yana bir topishmoq esa bugungi siyosiy nizolarning

badiiy ramzga solingan aniq manzarasini ko‘z oldimizda jonlantiradi. Ziyrak o‘quvchi uchun igna bilan angishvonaning “bahsi” go‘yo ikki davlat o‘rtasidagi hujum va tortishuvlarning real sahnasiga aylanadi:

**Yalang‘och qochadi,
Yorg‘oqli quvadi.**



Topishmoqning javobini qo‘ya turaylik. Misralardagi “Yalang‘och qochadi” ifodasi zaif davlatning doim o‘zini saqlab qolish yo‘lini izlashi, xavf va tahdidlardan panoh topishga majbur ekanini ramziy ifodasidir. “Yorg‘oqli quvadi” esa kuchli davlatning ochiq, qat’iyatli va tajovuzkor harakatini, o‘z qudratini namoyon etish orqali raqibga bosim o‘tkazishga intilishini anglatadi. Shu tariqa xalq topishmoqlari orqali oddiy buyum va holatlar ortidan butun bir siyosiy-ijtimoiy manzarani ko‘rish mumkin.

Darhaqiqat, xalq topishmoqlarida askar va bahodir obrazlari ularga xos va mos detallar bilan shu qadar tabiiy uyg‘unlashtirib tasvirlanadiki, o‘quvchi beixtiyor bu topilmalarning chinligiga, hayotiy asosiga ishona boshlaydi.

Masalan, qulf haqida aytilgan:



“Posbonidir u uying, Ko‘zi, tili yo‘q uning”, degan misralarda oddiy buyum tirik posbon qiyofasida namoyon bo‘ladi. Bunda qulfning “ko‘zi va tili yo‘q”, ammo uyni qo‘riqlaydigan vazifasi borligi juda aniq va ta’sirchan ifoda etiladi.

Xuddi shuningdek, qamish haqida to‘qilgan topishmoq ham obraz va mazmun uyg‘unligi jihatidan o‘ta ishonchli. Bu yerda qamish ko‘p qilichli, uzun bo‘yli bahodirga qiyoslanadi:

**Son-sanoqsiz qilichli,
Uzun bo‘yli bahodir.
Yetar uzala tushib,
Shovullab bexavotir.**



Umuman, qilich motivi xalq topishmoqlarida eng faol ramzlardan biri bo‘lib, ko‘p hollarda ma’no kalitini ochib beruvchi asosiy vosita vazifasini o‘taydi. Masalan, tong yorishishi:

**Bundan otgan qilichim,
Zangar borib ochildi,**



– deya tasvirlansa, suv: “Qilich urdim – o‘rni yo‘q” iborasi orqali ifodalanadi. Ustara “Yumaloq tepada qilich o‘ynar”, sham esa “Qilich uchi qaltiroq” ramzlari bilan anglatiladi. Qilichning o‘zi esa: “Qora biyam qalt etdi, Qobirg‘asi yalt etdi”, kabi tasvir orqali namoyon bo‘ladi.



Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Shu bilan birga, xalq topishmoqlarida miltiq va o‘q motivlari ham muhim o‘rin tutadi. “Tumshug‘i uzun – tog‘ni teshar”, “Zing etdi, zingrab ketdi”, “Oq kuchugim ang etdi, tovushi Qo‘qonga yetdi”, “Og‘izginasi o‘ymoqday, baqirgani toyloqday” kabi misralar orqali


xalq o‘q, miltiq va portlash tovushlarini jonli, obrazli va esda qolarli shaklda tasvirlaydi. Aslida bunday topishmoqlarning o‘quvchiga beradigan eng katta ma’naviy ozuqasi topqirlik, ramz orqali fikr yuritish va hodisalarning mag‘zini chaqa olish ko‘nikmasidir.



Masalan:

**Tirik kelib, o‘likdan osh so‘radi,
O‘lik turib, tirikni bo‘g‘ib oldi.**

Topishmoq “tirik”ning “o‘lik”dan osh so‘rashi oddiy manzara emas, balki katta falsafiy qarama-qarshilikdir. Mana shu mantiq o‘quvchini izlanishga majbur qiladi va oxir-oqibat topishmoqning asl mohiyatiga olib kiradi. Javob – sichqon va qopqon.



Ammo shunday topishmoqlar ham borki, ularda ramziy ifoda ancha yashirin va nozik bo‘ladiki, o‘quvchi javobini bilmaguncha ma’noni to‘la anglay olmaydi. Masalan:

**Otamdan bir meros oldim,
Yerga ko‘msam chirimas.**

Qanchalik o‘ylab ko‘rilmasin, bu misralarda nima nazarda tutilganini darhol ilg‘ash oson emas. Biroq javobning ism ekanini bilganingizdan so‘ng barchasi sizga ayon bo‘ladi.

Quyidagi topishmoqlar ham dastlab o‘quvchini ikkilantirib qo‘yadi:

“Hakkam cho‘loq yer teshar”,
“Cho‘loq otasiga go‘r qazir”,
“O‘tmas pichoq yer kavlar”...



Zohiran ularning har biri alohida voqeadek tuyulsa-da, aslida javobi bitta: tomchi. Bu yerda xalq tafakkuri eng mayda, beozor hodisani ham ulkan ta’sir qudratiga ega kuch sifatida ko‘rsata oladi.

Shu ma’noda xalq topishmoqlari o‘quvchini tayyor javobga emas, balki mustaqil fikrga, chuqur mushohadaga va ma’noni izlash jarayonidan zavq olishga o‘rgatadi.

Yana bir topishmoqqa e’tibor qarataylik:

**Katta-kichik besh o‘rtoq,
Uyushsa bo‘lar to‘qmoq.**

Ushbu topishmoqda insonning tana a’zosi bo‘lgan barmoqlar jonli badiiy obraz darajasiga ko‘tariladi. “Katta-kichik besh o‘rtoq” iborasi orqali barmoqlarning turli o‘lchamda ekani, ularni “o‘rtoq” deb atash esa jamoaviylik, birdamlik ruhini ochib beradi.

“Uyushsa bo‘lar to‘qmoq”da esa barmoqlarning birlashib mushtga aylanishi hayotiy, ammo o‘ta ta’sirli qiyos orqali berilgan. Bu o‘rinda “birlik – kuch, tarqoqlik – zaiflik” ekani ramz orqali singdiriladi.



Yana bir topishmoqqa e’tibor qarataylik:

**Shu ko‘chaning boshida,
Tilla egar qoshida,
Buni topgan kishilar
Yuz yigirma yoshida.**

Bu topishmoqda xalq aqlni tayyor holda beriladigan ne‘mat emas, balki hayot davomida misqollab yig‘iladigan boylik sifatida tasvirlaydi “Tilla egar qoshida” aqlning noyob va bebaholigiga ishora. “Yuz yigirma yoshida” ramziy yosh esa aql yillar bilan emas, balki to‘plangan tajriba va bilim shakllanishi anglashiladi. Ya’ni inson umr bo‘yi yashasa ham, haqiqiy aqlga kech yetishi mumkin.



Ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq yana bir topishmoqni ko‘rib chiqsak:

**O‘tda yonmas,
Suvga botmas,
Yerda chirimas.**

Topishmoqning javobi – to‘g‘rilik. Bu tasavvurning xalq epik tafakkuri bilan ham uzviy bog‘liqligi bor. Masalan, “Alpomish” dostonida qahramonning “O‘tda yonmas, suvda cho‘kmas, qilich o‘tmas” degan ta’riflari uning jismoniy kuchidan ko‘ra ma’naviy pokligi va haqgo‘yligini ko‘rsatadi. Shu tariqa xalq ongida bunday sifatlar tasodifiy emas: inson to‘g‘ri bo‘lsa, u har qanday sinovdan omon chiqadi. Topishmoq va dostonning o‘zaro hamohangligini ko‘rsatadigan asosiy mantiq shundaki, to‘g‘rilik – insonni asraydigan va uni yengilmas qiladigan eng oliy fazilat.

Yana bir topishmoqqa e’tibor qaratamiz:

**Devolga qo‘ngan qushim,
Ba‘zilari bir qanot,
Ba‘zilari qo‘sh qanot.**

Topishmoqda eshik juda sodda, xalqona tasvir orqali beriladi. “Devorga qo‘ngan qush” eshikning uy devoriga mahkamlangani, uning ochilib-yopilgani esa go‘yo qushning qanot qoqayotganiga qiyos. “Ba‘zilari bir qanot, ba‘zilari qo‘sh qanot” misrasi esa ijtimoiy manzara yaratadi: bir tabaqali eshik oddiy uy-joyga, qo‘sh tabaqali eshik esa kengroq, imkoniyati yaxshiroq xonadonga ishora qiladi. Shu tariqa topishmoq xalqning moddiy turmushini ham bilvosita ko‘rsatadi.



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hatto bolalar uchun deb qaraladigan sodda topishmoqlar ham shunchaki so‘z o‘yini emas, balki xalqimizning asriy o‘ylovlari, og‘riqlari va dard parchalarini mujassamlashtiruvchi ijodiy namunalardir. Ular insonga hayotning muhim qonuniyatlarini, moddiy va ma’naviy qadriyatlarini, to‘g‘rilik, aql va tajriba orqali fikrlash va mushohada qilish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Shu tariqa topishmoqlar xalq tafakkurining nafaqat o‘tmishdan bugungacha yetib kelgan boy merosini, balki ijodiy va ma’naviy qudratini ham namoyon qiladi.

**Bobur ELMURODOV,
jurnalist**

Keling, kitob o'qiyamiz!



Qachon she'r ishqida bunaqa yonganimni eslolmayman. Soyam ham she'r bo'lib ergashadi, ortimdan. Yaproqlar she'r, yo'laklar she'r. Hammasini bir-bir terib olsang-u, to'yguncha yozsang. Odatda, bunday paytlarda biror nima qoralab ko'nglim xotirjam tortardi. Bu gal xayolimni timdalayotgan tushuniksiz holatimdan bu yo'l bilan chiqib ketolmadim. Na she'r yozdim, na xotirjamlik topdim. Ichimdagi ajdahoning chanqog'ini esa nima bilandir bosishim kerak edi.

KO'NGIL TAFSIRI

Xonaga qaytib, telefon titkilay boshladim, Instagram, Facebookdagi kundalik rilslarni birin-ketin tepaga surib, vaqtimni sovurishga tushdim. Ijtimoiy tarmoqlarda qaysi mavzuda kontent videolar ko'rsangiz, shu mavzuda sizga moslashtirilgan kontentlar tavsiya qilinadi. Menda esa doimgidek she'riy videoroliklar aylana boshladi. O'zini bechora ko'rsatib, shoir degan nomni tuproq bilan bitta qilayotgan allaqanday havaskorlar, menga donat qiling, deb sadaqa tilanayotgan ijodkorlarni ko'rib, ensam qotib turganda, bir shoira qizning videoroligi chiqdi, oldimdan. Hech qanaqa ta'masiz, ruhini tonggi yomg'irda chayib olgandek toza, tishga tegmaydigan ohangda she'r boshlab qoldi deng. Ko'nglim yorishib ketdi.

She'rlaridagi o'zgacha uslub meni o'ziga asir etdi. Sahifasiga kirib, she'rlarini birin-ketin tinglab chiqdim. Ichimni timdalayotgan ajdahoning ham og'zi biroz yopildi. Yaxshi she'rga uchragan odam, xuddi sahroda buloqqa duch kelgan odamga o'xshaydi: chanqog'i qongani bilinmaydi, to'ygani bilinmaydi. Kamina ham shoiraning Telegram kanalini qidirishga tushdim. Avval ham ismini ora-sirada eshitganman. She'rlariga ham duch kelganman, ammo bugun umuman boshqa kayfiyatda, boshqa emotsiyada oshiq bo'lib o'qiyotgandim, she'rlarini.

O'zimning o'y-xayollarim bilan andarmon bo'lib shoiramizni tanishtirmabman. Mehrinoz Abbosova she'rlari samimiy, sodda, meni o'qisang ham o'qiysan, o'qimasang ham degandek termilib turadi, sizga. Ochiqdan ochiq hayqiriqlardan xoli, isyon ham lirik ko'rinish kasb etadi. Oq va erkin uslubda bitgan bitiklariga mahliyo bo'ldim, odatda, bunaqa she'rlarni uncha xushlayvermayman. Erinchoq ijodkorning dardidek tuyuladi, menga. Ammo Mehrinozda hammasi go'zal: ohang, tashbeh, bir-birini suyab turibdi. O'qirmanning tishiga botadigan misralar deyarli yo'q. Suluv qizlarning bo'ynidagi marvarid marjondek so'zlarni dur qilib tizadi. Keling, gapni uzoqdan olib kelmay, she'rlaridan misol keltiray:

*Xudoyim, bu yo'qlikda,
Ko'nglimni yo'qlayversam.
Seni deb yig'layversam,
Seni deb yig'layversam.*

*Ko'z yoshlarim umrini,
Cho'za olsa edim men.
Hislarimning suratin,
Chiza olsa edim men.*

*Bu hislarda na rang, na
Shakl-u shamoyil bo'lgay.
Qullarning ko'zi doim
Yig'iga moyil bo'lgay.*

*Tuproq, yo'l bo'lmoq baxtdir,
Maysa, gul bo'lmoq baxtdir.
Barchasidan avlodir
Senga qul bo'lmoq baxti.*

*Umr bir nafasdurur,
Qachon firoq basdurur.
Nafs arsloni qamalgan
dunyosi qafasdurur.*

*Qafasda hurlik manga,
Lek jafo turlik manga.
Boshim ustiga poying,
Qulligim qulluq manga.
Qulligim qulluq manga...*

Bu she'r shoiraning bundan o'n uch yil avval yozgan munajatidir. Yuqorida aytganimdek, so'zlar marjondek tizilgan. "Dilda darding bo'lmasa, dardisarimni kovlama", deydi Mashrab hazratlari. Endi ayting-chi, ko'nglida oshiqlik bo'lmagan odam shunday she'rlar yoza oladimi? "Seni deb yig'layversam", deya Xoliqu Mavloga munajat aylaydimi? Yo'q, albatta. Faqat oshiqqina yuragidan bunaqa sof arzi hol qiladi:

*Ko'z yoshlarim umrini,
Cho'za olsa edim men.
Hislarimning suratin,
Chiza olsa edim men.*

Inson huzurdan yig'laganda, ko'z yoshlarining to'xtashini istamaydi. Ayniqsa, u oshiq bo'lsa, oshiq bo'lib ham Mavloning o'ziga oshiq bo'lsa. Bu sog'inchda umid bor, baxt bor, huzur bor. Yolg'iz o'zigagina oshiqlik baxti naqadar go'zal. Hislarning suratini esa turli talqinda ifoda etish mumkin. "Ko'ngil – Tangrining taxti", deydi. Demak, bu koshonada yomon tuyg'ular barg yozmaydi. Yomon xayollar yashamaydi. Shoira ham bu ko'shkni Mavlosiga oydin bir suratda tilda, she'rda aytib bo'lmas bir ko'rinishda tutmoqni istaydi.

Bu ishq yo'lida Yolg'izga oshiqlik naqadar go'zal ekanini shoira she'rning so'ngida juda go'zal jonlantiradi:

*"Qulligim qulluq menga.
Qulligim qulluq menga".*

Shu she'rni o'qiganimdan beri, tilimda aylanayotgan bu misra ortida chin ishqning Tarsosi yashayotganini his qilaman. Ammo oshiq bo'lgani bu dunyoning shayx Sa'nonlari emas, balki yagona Alloh ekanini meni yana bir karra sevintiradi.

Ba'zida ichimdagi ikkinchi odam tinmay, nelardir haqida so'z qotadi. Ha deganda, tushunavermaganimdan so'ng ochlik e'lon qilgan shohning tannoz qizidek eshiklarni mahkam qulflab oladi. Shunday kezlarda unga eng toza, eng shaffof so'zlardan tutaman. Shundan so'nggina onasi bozordan xo'rozqand olib kelgan boladek quvongani quvongan. Bugun ham uni bir qadar quvontira olganimdan o'zim ham yuksalдим. Unga toza so'zlardan tuta olganimdan mamnunman. Buning uchun esa shoira Mehrinoz Abbosovaga ham alohida tashakkurlar. So'zimning so'ngini shoiraning yana bir she'ri bilan yakunlayman.


*Yaxshiyam, osmondan baland hislar bor,
Yaxshiyam, yomg'ir bor,
yaxshiyam – ko'zyosh.
Dardimni birovga qilmadim oshkor,
Yig'laganimni hech ko'rdingmi, Quyosh?!*

*Bari haddan ziyod yaxshidek go'yo,
Cho'kdim, baxt atalmish dengiz qa'riga.
Endi xursandmisan, azizim dunyo?
Javob topolmadim savollarimga?*

*Hayot boshdan oyoq o'xshar so'roqqa,
Na olim, na shoir topdi javobni.
Har tong yuragimni ko'chirdim oqqa,
Ba'zan non o'rnida yedim kitobni.*

*Ammo hech o'zimdan
bo'lmadim xursand,
Bechora dilimga ko'p berdim ozor.
Yaxshiyam, hislar bor –
osmondan baland,
Yaxshiyam, dunyodan katta dardlar bor.*

**Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"**



KIBERXAVFSIZLIK VA IT SOHASINING O'RNI

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida davlat xavfsizligini ta'minlash faqatgina qurol-yarog' va inson omili bilan emas, balki axborot makonini himoyalash bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, kiberxavfsizlik va axborot texnologiyalari (IT) sohasining milliy armiyamizdagi roli tobora ortib bormoqda.

Zamonaviy urushlar nafaqat jang maydonida, balki kibermakonda ham olib borilmoqda. Harbiy tizimlarga qaratilgan kiberhujumlar aloqa vositalarini ishdan chiqarishi, maxfiy ma'lumotlarning tarqalishiga sabab bo'lishi yoki strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois milliy armiyamizda kiberxavfsizlikni ta'minlash davlat mudofaa siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.

IT texnologiyalari armiyada boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirish, razvedka va tahlil jarayonlarini tezkor va aniq olib borish, zamonaviy qurol-aslahalarni boshqarish imkonini bermoqda. Sun'iy yo'ldoshlar,

UUA, dronlar, raqamli aloqa vositalari va axborot bazalarining samarali ishlashi bevosita IT mutaxassislarining salohiyatiga bog'liq.

Kiberxavfsizlik bo'yicha tayyorlangan harbiy mutaxassislar harbiy axborot tizimlarini himoya qilish, tahdidlarni oldindan aniqlash va ularning oldini olish vazifalarini bajaradi. Bu esa nafaqat armiyaning barqaror faoliyatini ta'minlaydi, balki mamlakatning umumiy axborot xavfsizligiga ham xizmat qiladi.

Qurolli Kuchlarimizda so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish, kiberxavfsizlik yo'nalishida kadrlar tayyorlash va maxsus bo'linmalarni rivojlantirishga

alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida IT va kiberxavfsizlik fanlarining o'qitilishi yosh harbiy mutaxassislarining zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Sharqiy harbiy okrug fakultetida ham zamonaviy texnologiyalar, IT va kiberxavfsizlik fanlarining o'qitilishi samarali tarzda yo'lga qo'yilgan.

Xususan, ushbu ta'lim dargohida Vatan posbonlariga sohaning sir-asrorlari malakali professor-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy qurolli to'qnashuvlar tajribasidan kelib chiqqan holda amalga oshirib kelinmoqda. Bunga javoban

tinglovchilar ham mazkur imkoniyatlardan keng foydalanib, IT va kiberxavfsizlik sohasini o'zlashtirishda ijobiy natija va yutuqlarga erishib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, IT va kiberxavfsizlik sohasi bugungi milliy armiyamizning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi, qo'shinlarning jangovar salohiyatini oshirish, milliy xavfsizlikni mustahkamlash va zamonaviy tahdidlarga munosib javob qaytarishda muhim omil sifatida qaralmoqda.

**Mayor
Dilshod AZIZOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universitetining
Sharqiy harbiy okrug
fakulteti katta o'qituvchisi**

Men Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi kursantiman. Ushbu maskanda tahsil olayotganim hayotimdagi eng mas'uliyatli va sharaflilardan biri, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bu yerda biz faqatgina harbiy fanlarni o'rganibgina qolmay, balki haqiqiy harbiyga xos bo'lgan intizom, tartib, mas'uliyat va Vatanga sadoqat tuyg'ularini qalbimizga singdirmoqdamiz.

KURSANTLIK —

Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida o'qish, bu o'z ustida doimiy ishlash, har bir kunni maqsad bilan boshlash, demak. Mashg'ulotlar jarayonida jismoniy chiniqish bilan bir qatorda, ma'naviy tayyorgarlikka ham alohida e'tibor qaratiladi. Saf mashqlari, nazariy va amaliy darslar bizni harbiy xizmat sharoitiga moslashtiradi, mustahkam iroda va qat'iyatni shakllantiradi. Bu yerda o'rganilayotgan har bir talab, har bir qoida bejiz emas, ularning barchasi kelajakda Vatan oldidagi muqaddas burchni munosib ado etishimiz uchun xizmat qiladi.

Bizga saboq berayotgan ustozlar katta hayot maktabini ko'rgan, boy tajribaga ega harbiy mutaxassislardir. Xususan, guruh rahbarimiz polkovnik Tohir Irgashevning bilimlari, talabchanligi va shu bilan birga otalarcha g'amxo'rliqi har bir kursant uchun katta motivatsiya bo'lib xizmat qilmoqda. U kishining har bir darsi, har bir nasihati bizni nafaqat bilimli, balki mas'uliyatli va fidoyi ofitser bo'lishga undaydi. Aynan shunday ustozlar qo'lida tahsil olayotganimiz bizga alohida faxr va ishonch bag'ishlaydi.

Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida shakllanayotgan muhit kursantni ichki jihatdan

SHARAFLI YO'L

tarbiyalaydi. Bu yerda vaqtga qat'iy rioya qilish, buyruqlarni so'zsiz bajarish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish kabi fazilatlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanadi. Intizom va tartib-qoidalar dastlab murakkab tuyulishi mumkin, ammo vaqt o'tib aynan shu talablar insonni chiniqtirishi, uni hayotning turli sinovlariga tayyorlashi ayon bo'ladi.

Shu bois bugun o'zimni kursant deb atashdan faxrlanaman. Chunki

kursantlik bu faqatgina o'quv bosqichi emas, balki kelajak hayotimga yo'l ochuvchi sharaflil maktab. Bu maskanda olgan bilimlarim, tarbiya va tajribam ertaga Vatan himoyasida xizmat qilishimda mustahkam poydevor bo'lishiga ishonaman!

**G'iyos YODGOROV,
O'zMU Harbiy
tayyorgarlik o'quv
markazi kursanti**



Texnologiya



Zamonaviy dunyoni sun'iy yo'ldosh texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har kuni millionlab insonlar yo'l topish, transport harakatini rejalashtirish, yuklarni kuzatish, favqulodda vaziyatlarda tezkor yordam ko'rsatish kabi jarayonlarda GPS texnologiyasidan foydalanmoqda. GPS (*Global Positioning System*) bu Yer yuzidagi istalgan nuqtaning aniq joylashuvini belgilash imkonini beruvchi global navigatsiya tizimidir.

GPS tizimining yaratilishi

GPS texnologiyasining shakllanishi XX asr o'rtalariga borib taqaladi. 1957-yilda sobiq Ittifoq tomonidan "Sputnik-1" sun'iy yo'ldoshi orbitaga chiqarilgach, AQSh olimlari uning signal chastotasidagi o'zgarishlarni kuzatish orqali obyektning joylashuvini aniqlash mumkinligini anglab yetishadi. Aynan shu hodisa sun'iy yo'ldosh navigatsiyasining ilmiy asosini yaratdi.

Harbiy ehtiyoj va GPS loyihasining boshlanishi

1973-yilda AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan NAVSTAR GPS loyihasi rasman ishga tushirildi. Tizim dastlab faqat harbiy maqsadlar uchun mo'ljallangan bo'lib, qo'shinlarning harakatini aniq boshqarish, raketa va samolyotlarni yo'naltirish uchun xizmat qilgan.

1978-yilda birinchi GPS sun'iy yo'ldoshlari orbitaga chiqarildi. 1980-yillar davomida tizim bosqichma-bosqich takomillashtirildi. 1983-yilda Janubiy Koreyaning yo'lovchi samolyoti havo hududidan adashib, halokatga uchrach, AQSh Prezidenti Ronald Reygen GPS tizimining fuqarolik foydalanishi uchun ham ochish to'g'risida qaror chiqardi.

1995-yilga kelib, AQSh tomonidan 24 ta sun'iy yo'ldoshdan iborat to'liq GPS navigatsiya tizimi ishga tushirildi.

Hozirgi kunda GPS tizimi barcha jabhalarda, xususan geodeziya va kartografiya, favqulodda xizmatlar, logistika va yuk kuzatuv, smartfon ilovalarida keng qo'llanilib kelinmoqda.

GPS navigatsiya tizimi qanday ishlaydi?

GPS – bu Yer yuzidagi joylashuvni aniqlash uchun sun'iy yo'ldoshlardan foydalanadigan global navigatsiya tizimi. U quyidagi tartibda ish olib boradi:

- sun'iy yo'ldoshlar faol signal yuboradi;
- qabul qiluvchi qurilma (*receiver*) bu signalni oladi;

- signal vaqt farqlariga asoslanib, qurilma sizning aniq koordinatalaringiz (*uzunlik, kenglik va balandlik*)ni hisoblaydi.

Zamonaviy GPS texnologiyalari:

- joylashuvni yuqori aniqlikda aniqlash;
- real vaqt rejimida monitoring qilish va kuzatuvni amalga oshirish;
- navigatsiya va marshrutni optimallashtirish;
- geofenking (*virtual hudud nazorati*);
- aqlli shahar tizimlarida qo'llanilishi;
- harbiy xavfsizlik sohasidagi ahamiyati;
- dronlar va avtonom texnologiyalarda qo'llaniladi.

Zamonaviy GPS qurilmalari 1–3 metr aniqlikda hisoblab beradi. U bir vaqtning o'zida bir nechta global navigatsiya tizimlaridan foydalanishi mumkin. Bu esa aniqlikni yanada oshiradi.

Global va mintaqaviy sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlari

I o'ringa GPS (AQSh).

Dunyodagi eng birinchi va eng ko'p ishlatiladigan GNSS tizimi, 24 va undan ortiq sun'iy yo'ldosh orqali juda keng qamrovli tizimga ega.

Juda ko'p mobil qurilmalari va JPS qabul qiluvchi qurilmalar bu

signallarni asosiy navigatsiyada ishlatadi, GPS tizimi AQSh hukumati tomonidan boshqariladi.

II o'ringa GLONASS Rossiya navigatsiya tizimi.

Ushbu tizim GPS (AQSh) tizimiga muqobil sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, butun Yer sharida joylashuv, tezlik va aniq vaqtning belgilash imkonini beradi.

2000-yillar boshida GLONASS tizimi moliyaviy muammolar sababli qisman faol bo'lgan, 2011-yilga kelib, Rossiya bu tizimni to'liq tiklab, global qamrovga qaytardi va tizim boshqaruvi Rossiya Mudofaa vazirligiga topshirildi.

Bugungi kunda GLONASS zamonaviy navigatsiya qurilmalarining muhim qismi hisoblanadi.

III o'ringa Galileo Yevropa Ittifoqi sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimi.

Galileo – bu Yevropa Ittifoqi tomonidan 2016-yilda yaratilgan global sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimi bo'lib, AQShning GPS tizimiga Yevropaning mustaqil muqobil sifatida ishlab chiqilgan. GPS va GLONASS tizimlaridan farqli o'laroq, milliy harbiy idoralar nazorati ostida bo'lmagan, fuqarolik maqsadlariga mo'ljallangan navigatsiya tizimidir.

Keyingi o'rinlarni Xitoy, Hindiston, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning global va mintaqaviy navigatsiya tizimlari egallagan.

Harbiy sohadagi tutgan o'rni

Dastlab faqat harbiy maqsadlar uchun yaratilgan bu navigatsiya tizimi hozirga kelib, yuqori global tizimga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda bu tizim, harbiy sohada, zamonaviy harbiy harakatlarda yuqori aniqlik, tezkor qaror qabul qilish va axborot ustunligiga asoslanadi.

Ushbu jarayonda sun'iy yo'ldoshli navigatsiya tizimlari:

- quruqlikdagi qo'shinlar, zirhli texnika, harbiy avtomobillar va maxsus bo'linmalar uchun aniq joylashuvni ta'minlaydi;

- harbiy aviatsiya va havo amaliyotlarida strategik ahamiyatga ega texnologiya bo'lib, parvoz xavfsizligi, havo razvedkasi, yerdagi nishonlarga aniqlik bilan zarbalar berish, yashirin kodlar orqali signallar yuborish, aniq boshqariluvchi raketalar va dronlarni yo'naltirish uchun ishlatiladi;

- yuqori aniqlikdagi qurollarni boshqarishda – bu tizim qurolga real vaqt rejimida aniq koordinatalarni uzatib, nishonni uzoq masofalardan bexato yakson qilishga imkon beradi;

- razvedka va kuzatuv tizimlarida harbiy bo'linmalarga aniq joyshuvni belgilash, harakatlarni kuzatish va ma'lumotlarni muvofiqlashtirish imkonini beradi. Ular razvedka dronlari, kuzatuv sun'iy yo'ldoshlari va yerusti guruhlarining pozitsiyasini real vaqt rejimida aniqlab, to'plangan razvedka ma'lumotlarini aniq geografik koordinatalarga bog'laydi. Bu tizim razvedka va kuzatuv nazoratining samarali asosi hisoblanadi;

- elektron urush va himoya texnologiyalari dushmanning qurolli bo'linmalariga elektron qarshi choralarini qo'llash, ya'ni dushman signallarini aniqlash va bu ma'lumotlar orqali dushman koordinatalarini topish yoki ishchi chastotalarini ishdan chiqarish, chalg'itish, dushman tepasidagi sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlarining kodlarini aniqlash va ularni bloklash orqali, elektron urushlarda mutlaq nazoratni, himoya va ustunlikni ta'minlash mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, navigatsiya tizimlari oddiy yo'nalishni aniqlash vositasidan global ahamiyatga ega yuqori texnologik tizimga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy urushlarning murakkablashuviga olib keladi.

**II darajali serjant
G'ayrat JABBAROV,
Mudofaa vazirligi
Merganlarni tayyorlash
markazi katta yo'riqchisi**

Kelajagimiz bunyodkorlari

Azizaxon erta tongdan buyon o'zini qo'yarga joy topa olmaydi, qizidan xavotirda. O'smir yoshdagi Asalxon Qirg'izistonning Bishkek shahriga musobaqaga ketgan. To'g'rirog'i, o'smir yoshlar o'rtasida sportning taekvondo yo'nalishida o'tkazilayotgan Osiyo chempionatida ishtirok etish uchun borgan. Dastlab qo'l telefoni orqali bog'lanib turgan ona keyinchalik qizi bilan ham, uni musobaqaga tayyorlagan murabbiyi bilan ham gaplasha olmadi. Musobaqa oldidan bunday holat bo'lishi tabiiy, albatta. Biroq bugun musobaqaning so'nggi kuni yakunlanib, vaqt allamahol bo'ldi hamki, qizidan xabar yo'q.



Shuningdek, Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida bo'lib o'tgan XI Osiyo o'yinlarida 3-o'rin g'olibligini qo'lga kiritdi. 2025-yilning dekabrda esa taekvondo yo'nalishida o'smir yoshlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida faxrli 1-o'rin g'olibligiga egalik qildi.

Asal Hayitova sportdagi faoliyati davomida 2 ta oltin, 7 ta kumush va 7 ta bronza medal hamda yigirmadan ziyod faxriy yorliq bilan taqdirlangan. Erishajak ulkan yutuqlari esa hali oldinda.

Asalga tengqurlari har tomonlama havas qiladi. Buning sababi chempion qiz rus va ingliz tili to'garaklariga borishni kanda qilmaydi. Xorij tillarini egallash borasida bilimdon. Kelajak maqsadi yuksak. U O'zbekiston Milliy universitetining jismoniy tarbiya yo'nalishida tahsil olib, o'zi kabi bolalarga taekvondodan saboq berishni maqsad qilgan.

Madina Hayitovaga to'xtaladigan bo'lsak, o'n yoshli sportchi qizimiz katta musobaqalarda ishtirok etishni boshladi. U 2025-yili Toshkent shahri bo'yicha o'smir yoshlar o'rtasida sportning taekvondo yo'nalishida bo'lib o'tgan chempionatda 3-o'rinni egalladi. Treneri Davron Xidirovning zukko qizdan umidi katta. Shuningdek, mo'yqalam ustasi bo'lgan Madinaga rasm chizishda tengqurlari orasida teng keladigani yo'q.

Chirchiq shahridagi umumta'lim maktabida tahsil olayotgan oilaning uchinchi farzandi Maftuna ham shijoatda opalaridan qolishmaydi. Ayni paytda u sportning karate turi bilan astoydil shug'ullanishga kirishgan.

Yigirma besh yil Vatan tinchligini asrash yo'lida xizmat qilgan Mansurjon Yendirboyev ayni damda iste'foda. U farzandlarini aqlli, bilimdon, kelajagini chiroyli yarata oladigan insonlar qatorida bo'lishi uchun astoydil harakat qilayotgan jonkuyar otalardan biri.

Qurolli Kuchlar xizmatchisi Azizaxon Izbastiyeva esa Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi tasarrufidagi harbiy qismda Xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassis. Bu degani harbiy oila bekalarining sirdoshi, maslahatchisi, kerak chog'da muammolarini ijobiy hal etishda yaqindan yordam berishga tayyor ko'makchisi.

Mamlakatimiz istiqboli bo'lmish yoshlarga e'tibor qaratsangiz, aql-zakovati bilan dunyoga tanilayotgan bilimdon, yaratuvchan o'g'il-qizlarni ko'rib, ko'ksingiz ko'tariladi. Yurt ertasi ishonchli qo'llarda ekanidan quvonasiz. Ammo nur bor joyda soya bor, deganlaridek, har tomonlama sog'lom bo'la turib, tubanlik sari qadam bosayotgan, o'zligini unutgan yoshlar ham yo'q emas. Sog'lom fikr, sog'lom hayotdan yiroq bunday yigit-qizlar Asal va Madina kabi eshitish va gapirishdan mahrum bo'lsa-da, irodali, maqsadi yuksak, yurt dovrug'ini dunyoga tanitishga qodir qizlardan o'rnak olsa, arziydi. Buning uchun ularni mehr ila voyaga yetkazgan, qiziqishi va maqsadi sari yo'naltirgan, har tomonlama tayanch bo'lib turgan ota-onasiga tashakkur aytish joiz.

Zero farzandlar kamolida oiladek ulug' tarbiya maskani va ota-onadek fidoyi zotlar yagonadir.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

FARZANDLAR KAMOLI

— oila baxti

Aziza opaning xavotirida jon bor. Birinchidan, Asalxonning katta musobaqada ilk bor ishtirok etishi. Ikkinchidan, jigarbandi...

HAYOT SINOVI

Kichik serjant Mansurjon Yendirboyev va Azizaxon Izbastiyeva ezgu orzular ila oila qurganida, hayotning kutilmagan sinovlariga ro'baro' bo'lishlari xayollariga kelmagandi. Oylar o'tib, oilada oydek qizaloq dunyoga keldi. Ota-onalik baxtiga muyassar bo'lgan yoshlarning quvonchi cheksiz. Ismini hayoti shirin bo'lsin, deya Asal qo'yishdi. Ammo ko'p o'tmay, qizaloqning qulog'i eshitmasligi, gapirishdan mahrum ekani yuzaga chiqdi. Nima uchun!? Axir har tomonlama sog'lom ota-onada shunday bo'lishi mumkinmi!? Mutaxassislar buning sababi yaqin qarindoshlarning o'zaro quda bo'lganida, degan xulosaga keldi. Ularning fikricha, sog'lom zurriyot ko'rish uchun er-xotin ajrashib, boshqa-boshqa oila qurishi kerak.

TAEKVONDOCHI QIZLAR

Mana, Asalxon maktab yoshida. Tiyrak qizaloq gapirmasa-da, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi baland. Ota-onasi uni maxsus maktab-internatga berdi. U surdopedagoglardan bilim olish barobarida, sakkiz yoshidan boshlab internat qoshidagi sport to'garagiga qatnasha boshladi. Uning taekvondoga bo'lgan qiziqishi trener Davron Xidirovni befarq qoldirmadi. Uch karra Osiyo chempioni, qora belbog' sohibi bo'lgan trener Asaldagi qat'iyat va jur'atni ko'rib, u bilan astoydil shug'ullanishga kirishdi. Ko'p o'tmay, u maktab-internat, tuman va shahar miqyosidagi sport musobaqalarida ishtirok etib, yetakchilar safida bo'ldi.

Katta musobaqalarda ishtirok etish uchun katta sport zali va iqtidorli raqiblar bilan bellashish, tajriba oshirish muhim ahamiyatga ega. Buni chempion qizimizning onasi Azizaxon quyidagicha izohlab o'tdi:

– Biz Chirchiq shahrida istiqomat qilamiz. Asal va Madinani Toshkent shahridagi 101-sonli maxsus maktab-internatga berganmiz. Ular haftada bir marta, dam olish kunlari bag'rimizda bo'ladi. Asal 9-sinf, Madina esa 3-sinf o'quvchisi. Ikkisi ham taekvondo bilan shug'ullanadi, yaxshi o'qiydi.

Asalning taekvondoga bo'lgan iqtidorini hisobga olib, internatdagi treneri bilan maslahatlashib, darsdan bo'sh paytlari shug'ullanishi uchun Yangi O'zbekiston bog'i hududidagi sport shaharchasiga olib borishga qaror qildik. U yerda tajribali trener Mavlon Rustamov qizimiz gapirmasa-da u bilan til topishdi va astoydil shug'ullana boshladi. Mana, shunga ham to'rt yil bo'lyapti.

ILK G'ALABA NASHIDASI

– Asal 2023-yili Bishkek shahridagi Osiyo chempionatida ishtirok etdi, – so'zini davom ettirdi Azizaxon. – Ona sifatida g'alabasiga umid qildim, ammo ko'proq oyoq-qo'li lat yemasin, degan xavotirda edim. Chunki 24 ta davlat ishtirok etgan katta musobaqada ilk bor qatnashishi edi. Dastlab u bilan qo'l telefoni orqali dadasi ikkimiz bog'lanib turdik. Lekin musobaqaning so'nggi kunlarida umuman aloqa bo'lmadi. O'sha paytdagi xavotirimni tasvirlashga o'zimga kechga borib, sinf rahbari Zebo opa telefon qildi va Asalning Osiyo chempionatida 3-o'rin g'olibi bo'lganini aytdi. Bu xushxabardan er-xotin yig'lab yubordik...

Azizaxon bilan suhbatlashyapman-u, xayolimni hayotning bir haqiqati band etyapti. Ya'ni oiladagi sog'lig'ida ma'lum kamchilik bilan tug'ilgan bolalar oldida ota-ona o'zini gunohkor sezadi. Shu sabab ularni qiynagan muammosidan ezilsa, erishgan yutug'idan osmon qadar xursand bo'ladi. Bu borada Asal Hayitova va Madina Mansur qizlari bugun ota-otalarining faxri, desak, arziydi.

Asal 2024-yili ham Bishkekda o'tkazilgan jahon chempionatida 3-o'rin g'olibi bo'ldi.



Ikki yosh farzandining tirik yetim bo'lishini istamadi, ajrim yo'lidan voz kechdi. Afsuslar bo'lsinki, oradan olti yil o'tib, tug'ilgan ikkinchi qizaloqlari Madina ham shunday tashxis bilan dunyoga keldi. Sinoatli dunyo sinovlarga boy, irodali inson hayot mashaqqatlarini yengib o'tishga qodir. Mansurjon va Azizaxon farzandlarini mehr ila voyaga yetkaza boshladi. Va nihoyat, uchinchi qizlari Maftuna sog'lom tug'ildi.

Yosh jurnalistlarga...

XULOSA TURLARI HAQIDA

ma'lumotga egamizsiz?

Maqola janrida yozilgan jurnalistik asarlarda kirish, asosiy qism bilan bir qatorda, xulosa ham muhim ahamiyat kasb etadi. Keltirilgan fakt, fikr, ta'kidlarni umumlashtirishga, muallifning tugal qarashi, xolis fikrini bayon etishga yordam beradi.

“Xulosa” arabcha soʻz boʻlib, “saralangan narsa”, “natija”, “qisqacha bayon”, “mazmun”, “mohiyat” degan maʼnolarni anglatadi. Professor Nazira Toshpoʻlatova istilohni publitsistik nuqtayi nazardan izohlashga harakat qiladi: “... muallif fikrining izchil rivojlanishi orqali paydo boʻladigan mantiqiy (nutqiy) yakun. Oʻquvchiga maqolada koʻtarilgan savolning yechimini koʻrsatish orqali hayotdagi maʼlum bir voqelik haqida aniq tasavvur beradi. Xulosada koʻtarilgan mavzu yuzasidan muallifning tugal qarashi, voqelikka yondashuvi, bahosi, umuman, xolis fikri ifoda etiladi”.

Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori Saodat Shomaqsudova xulosaning qay yoʻsinda yozilishi kerakligi haqida soʻz yuritadi: “Xulosa yoki rezyume quyidagi tartibda yoziladi. Ideal xulosada asosiy qismdagi voqealar rivoji yakun topib, matnga mantiqiy nuqta qoʻyiladi. Maqolada berilgan maqolaning haqiqat asosi yana bir bor tasdiqlanadi va kelajakda bu vaziyat qanday davom etishiga fikr bildiriladi. Xulosa uchun butun boshli matnning 10 foizi ajratiladi. Tilning ifodaviy vositalari, jumladan toʻliqsiz gaplar, ritorik soʻroq gaplar va boshqalardan foydalanish natijasida xulosaning jozibadorligi oshadi”.

“Xulosa kirish va asosiy qismda bayon etilgan fikrlarni umumlashtiradi. Asosiy qismda keltirib oʻtilgan fakt va fikrlarga nisbatan muallifning nuqtayi nazarini qanday ekanini koʻrsatadi. Subyektivlik oʻz aksini topadi. Oʻquvchilarni koʻtarilgan masalaning mohiyatini anglab yetishga, fikr yuritishga, faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishga chorlaydi. Xulosa adresat bilan muloqot qilishga imkon yaratadi”, deydi ukrainalik media tadqiqotchisi Xolod Inna.

Amerikalik publitsist Jeyson Shen eng yaxshi yozilgan maqolalarning xulosa qismi bilan qiziqdi. U xulosa qismini yozishda qoʻllaniladigan 23 ta tur bor ekanini aniqladi. Ularni 6 ta guruhga ajratib chiqdi. Bu haqda “Vatanparvar” gazetasining 2025-yil 26-dekabr kungi sonida batafsil toʻxtalib oʻtilgan.

Oʻzbekistonlik nazariyotchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jurnalistik asarda xulosani qoʻllashdan koʻzlangan maqsad, qanday funksiyalar bajarishini oʻrganishga koʻproq urgʻu berilgan. Xulosa turlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar deyarli yoʻq.

Toʻrt oy davomida markaziy nashrlarda, xususan “Jadid”, “Oila va tabiat”, “Vatanparvar”, “Hurriyat”, “Adolat”, “Xalq soʻzi”, “Ishonch” gazetalarida chop etilgan maqolalarning tarkibiy qismlari oʻrganib chiqildi. Ularning xulosasida qoʻllanilgan unsurlar nomi birma-bir qayd etib borildi. Natijada oʻzbek matbuotida eʼlon qilingan materiallarda, asosan, xulosaning 8 ta turi keng tarqalgani aniqlandi:

1. Umumlashtiruvchi xulosa – asosiy qismda keltirilgan fikr, fakt va qoʻshimcha maʼlumotlar, gʻoyalar bir nuqtada jamlanadi. Qisqa hajmda bayon etiladi. Kontekstga yangi fikr kiritilmaydi. Butun boshli materialning mazmunini, mohiyatini anglab yetishga yordam beradi.

“Mediasavodxonlik, tanqidiy tafakkur axboriy bosim oʻtkazuvchilar maqsadlariga mos ravishda fikrlash va harakatlanishga chek qoʻyadi, yolgʻon xabar bilan emas, haqqoniy axborotni qabul qilishingizni taʼminlaydi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan ruhiy salomatlikni taʼminlagan va asrab-avaylagan holda foydalanishga oʻrgatadi”. (S. Jumanova, “Miyangizni qanday axborot bilan toʻyintiryapsiz?” (“Ishonch” gazetasi, 2023-yil, 1-iyun).

2. Munosabatni bildiruvchi xulosa – muallif yoxud tahririyat vakilining fikr-mulohazalari, qarashlari aks etadi. Asosiy qismda keltirilgan faktlarga tayangan holda xulosalar chiqariladi. Qoʻyilgan masala, muammoning muhim yoki muhim emasligi, dolzarbligi, insoniyat uchun qanday foyda, zarar, naf keltirishi aytib oʻtiladi. Subyektivlik oʻz aksini topadi. Mushtariy fikr yuritishga, voqelikni baholashga, qaror qabul qilishga undaydi.

“Hozircha esa shu narsaga amin boʻldikki, boshqa hududlarni bilmadik, ammo Xorazmda mutolaa sanʼati juda-juda oqsab qolgan...” (F. Tangriberdiev, “Yana gazeta obunasi va mutolaa haqida”, (“Hurriyat” gazetasi, 2025-yil, 17-dekabr).

3. Turtki beruvchi xulosa – qoʻyilgan masala, muammoning hal etilish yoʻllari oʻrganib chiqiladi. Undash, ogohlantirish, chaqiriq ohangi ustuvor boʻladi. Mushtariy yoxud mutasaddilar maʼlum bir xatti-harakatni sodir etishga chorlanadi.

“Tilni saqlab qolish xalq madaniyati, anʼanalari, urf-odatlarining umrboqiyiligini anglatadi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, oʻqitadi, taraqqiyot va kelajak sari yoʻnaltiradi. Shunday ekan, “Devonu lugʻoti-t-turk”da ulugʻlangan, “Muhokamat ul-lugʻatayn”da sharaflangan ona tilimizning mahalliy va xalqaro miqyosdagi obroʻsini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida rivojlangan tillar qatoriga qoʻshish uchun har birimiz unga hurmat bilan yondashishimiz, bu ishni hayotiy shiorimizga aylantirmogʻimiz kerak”. (B. Abdushukurov, “Tilimizning boyligini chetdan emas, oʻzidan qidirish kerak”, (“Oila va tabiat” gazetasi, 2025-yil, 23-oktabr).



4. Taxminni ilgari suruvchi

xulosa – roʻy berayotgan voqelikning kelajakda qanday tus olishi mumkinligini, rivojlanish qonuniyatlarini oʻquvchiga tushuntirish maqsadida yoziladi. Faktlar, tahlillar va kuzatishlarga tayangan holda istiqbol bashorat qilinadi.

“Aytaylik, u oʻzi tinchitgan mojarolarni toʻxtatish uchun biror tiyin ham sarflagan emas. Hammasini iqtisodiy dastaklar vositasida uddaladi. Tramp bizning tilni bilmasa ham, oʻzbeklarning: “Kambagʻalni urma-soʻkma, koʻylagini yirt”, degan aqlli naqlidan xabardor koʻrinadi. Bu gal ham u ana shu maqolni qoʻllamoqda. Biroq sulhning qaror topishiga Rossiya, Xitoy, Hindiston singari yirik davlatlarning baquvvat iqtisodiyoti toʻsiq boʻlib turibdi. Agar qattiq cheklovlar qoʻllansa, ular ham Trampning yoʻrigʻiga yurishga majbur boʻlishadi, deb oʻylaymiz. Buning birinchi alomati sifatida Hindistonning rus neftini xarid qilishdan toʻxtalganini misol qilib koʻrsatish mumkin. Agar Xitoy ham shunday yoʻl tutsa, Putin uchun sulh tuzishdan oʻzga chora qolmaydi”. (X. Komilov, “Nobel” armoni”, “Zarafshon” gazetasi, 2025-yil, 25-oktabr).

5. Taklifni ifodalovchi xulosa – mavzuni yakunlab, kelgusida amalga oshirilishi lozim boʻlgan aniq chora-tadbirlar, tavsiyalar taklif etiladi.

“Bosma ommaviy axborot vositalarining adadini oshirish, avvalgi mavqeyini tiklash uchun bepul tarqatish tizimini yoʻlga qoʻyishni taklif etish mumkin. Gazetalar homiylar yoxud muassislar tomonidan moliyalashtiriladi. Maʼlum bir muddat davomida aholiga tekin tarqatiladi. Tahririyatlar jamoasi esa barcha uchun birdek qiziqarli, dolzarb mavzulardagi materiallarni tayyorlash bilan band boʻladi. Oqibatda kishilik jamiyati vakillari orasida gazeta oʻqish madaniyati yana qayta kundalik hayotga kiradi”. (U. Sharobiddinov, “Vaqtli matbuotga qiziqish yoʻqolmoqdamiz?”, “Vatanparvar” gazetasi, 2025-yil, 9-oktabr).

6. Iqtibosli yakun – biron-bir manbadan koʻchirib olingan matn yoxud shaxs fikri jurnalistik asar yakunida

keltiriladi. Natijada xulosa mazmunan mustahkamlanadi. Taʼsirliroq chiqadi. Oʻquvchi mavzuni chuqurroq anglab yetadi.

“Gulnoza Ismoilova rahbarligidagi jamoa shaffoflik va adolatga urgʻu bermoqda. Ammo haqiqiy oʻzgarish uchun yuqorida keltirilgan tizimli muammolar hal etilishi lozim. Aks holda meritokratiya va teng imkoniyatlar shunchaki soʻzlarda qolib, amalda imtiyozlar qonuniylashtiriladi. “Intelлект – ham genetik, ham atrof-muhit taʼsiriga uchragan shaxs xususiyati... Bizning kognitiv qobiliyatlarimiz 17-20 yoshgacha rivojlanadi va undan keyin bizning intellekt darajamizda kam oʻzgarish kuzatiladi” (Mensa). Bu iqtibos eslatadiki, IQ barqaror kognitiv qobiliyatni oʻlchaydi, SAT esa tayyorgarlik darajasini. Ularni tenglashtirib yoki birini boshqasi oʻrniga qoʻyib boʻlmaydi”. (S. Siroj “El-yurt umidi” jamgʻarmasi tanlov tizimidagi tizimli muammolar”, “Yoshlar ovozi” gazetasi, 2025-yil, 24-dekabr).

7. Savolli yakun – oʻquvchini fikr yuritishga chorlovchi savol oʻrtaga tashlanadi. Ritorik soʻroq gaplardan foydalaniladi. Tahliliy-tanqidiy maqolalarda istehzomuz soʻz, soʻz birikmasi, gaplar ham qoʻllanilishi mumkin.

“Mana shunga oʻxshash “ijod” kasriga qoʻshiqlarimiz qadrsizlanmayotganmikan?! Qoʻshiq saviyasi, maʼno-mazmunli boʻlsagina, totli boʻladi, ortiqcha bachkanalik odamni bezdiradi”. (D. Ergashev, “Bachkanalik sanʼatdan bezdiradi”, “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi, 2022 yil, 29-aprel).

Xulosa nafaqat maqolani mantiqan yakunlashga, tamomlashga, tugallashga, balki mohiyati, taʼsirchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Mavzuning dolzarbligini yana bir bor eslatadi. Oʻquvchi ongida qoʻyilgan masala, muammo yuzasidan yaxlit tasavvurni hosil qiladi. Muallif pozitsiyasini namoyon etadi. Sanab oʻtilgan turlarning oʻziga xos xususiyatlari, izhor tarzi, taʼsir doirasi bir-biridan farqlanadi.

Ulugʻbek SHAROBIDDINOV,
OʻZJOKU talabasi

Salomatlik



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

SOG'LOM HAYOT SARI BESH QADAM

Bugungi kunda sog'lom turmush tarzi har bir inson uchun muhim hisoblanadi, shu jumladan globallashtirish sharoitida aholi salomatligini mustahkamlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, sog'lom turmush tarzi o'zi qanday ma'no anglatishini ko'rib chiqsak. Sog'lom turmush tarzi keng ma'noli tushuncha bo'lib, unumli mehnat qilish, dam olish, badantariya va sport bilan shug'ullanish, tanani chiniqtirish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, oqilona ovqatlanish, zararli odatlardan o'zini tiyish va har yili shifokor ko'rigidan o'tib turishdan iborat.

Insonlar sog'lig'ining holati quyidagilarga bog'liq, desak, bo'ladi, ya'ni 20 foiz holatda irsiyat va tashqi muhit, 10 foiz holatda tibbiy yordam darajasi va 50 foiz holatda **sog'lom turmush tarziga** rioya qilishni tashkil etadi.

Sog'lom hayot kechirish hamda sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish uchun biz sizlar bilan besh qadamni bosib o'tsak, bu natijaga erishishimiz mumkin bo'ladi. Sog'lom hayot sog'lom kelajakni kafolatlaydi. Sog'lom turmush tarzini besh bo'lakli, ya'ni qadam deb olsak, ularni birma-bir ko'rib chiqish orqali va o'zimiz uchun kerakli bo'lgan xulosalarni olamiz.

1-qadam: to'g'ri ovqatlanish organizm ehtiyojiga mos ravishda oqsil, yog', uglevod, vitamin va boshqa mineral moddalarni muvozanatli qabul qilishdir. Noto'g'ri ovqatlanish esa semizlik, qandli diabet va yurak-qontomir kasalliklarini keltirib chiqaradi.

To'g'ri ovqatlanishga harbiy qism va muassasalarda taomnomaga asosan berilayotgan mahsulotlarni o'z vaqtida iste'mol qilish orqali erishish mumkin. Agar kunning istalgan vaqtida betartib ovqatlansangiz, qo'shimchasiga boshqa turdagi tez tayyor bo'luvchi mahsulotlar va gazli ichimliklarni me'yordan ortiq iste'mol qilsangiz, sizda noto'g'ri ovqatlanish yuzaga keladi. Bu organizmingizda yuqorida ko'rsatilgan kasalliklar va jismoniy faolligingiz pasayishiga olib keladi.

Shuning uchun o'z vaqtida sifatli va me'yoriy ovqatlanish to'g'ri ovqatlanishning asosiy poydevoridir.

2-qadam: jismoniy faollik – bu insonlarning o'z salomatligini saqlash va mustahkamlash maqsadida harakat faolligining turli xilidan foydalanishi bo'lib, kun davomida doim harakatda bo'lish, badantariya va jismoniy mashqlarni bajarish, organizmni chiniqtirish demak.

Natijada yurak-qontomir tizimi faoliyati va mushaklar harakati

me'yorda bo'ladi, moddalar almashinuvi yaxshilanadi, organizm to'qimalari oziq moddalarni yaxshi o'zlashtiradi, parchalangan moddalar esa organizmdan tezroq chiqarib tashlanadi.

Turli yoshdagilar uchun o'rtacha 10-15 daqiqalik ertalabki badantariyani bajarish tavsiya etiladi. Har bir kishi o'ziga mos jismoniy yuklamani tanlashi lozim. Harbiy qism va muassasalarda belgilangan kun tartibiga asosan, komandirlar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan mashqlarni bajarish orqali biz tanamizni chiniqtirib borishimiz mumkin.

Mashqlar va har qanday jismoniy faollik nafaqat stresslarni bartaraf etadi, balki organizm holatini yaxshilab, yashash davomiyligini uzaytiradi. Uyquga yotishdan oldin 15-20 daqiqa sayr qilish kun davomidagi charchoqni bartaraf etadi va uyqu sifatini yaxshilaydi. Shuning uchun kechki yo'qlamada belgilangan kiyim rusumida faol ishtirok etib, saf maydonida qo'shiqlar bilan erkin qadamlarda sayr qilib, uyquga yotish ham sog'lom turmush tarzining bir bo'g'ini bo'la oladi.

3-qadam: yetarli uyqu – bu organizm to'liq dam olib, ertasi kuni jismoniy va ruhiy jihatdan tetik holatda uyg'onishni ta'minlaydigan uyqu. Bugungi tezkor hayot sharoitida ko'pchilik uyquga yetarli e'tibor bermayapti. Kech uxlash, telefon va televizor qarshisida uzoq vaqt o'tirish, asabiylik va ish yuklamasining ortishi, uyqu sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aslida yetarli uyqu inson salomatligining eng muhim omillaridan biridir.

Harbiy qism va muassasalarda belgilangan vaqtda dam olish uchun yetarlicha vaqt ajratilgan, faqat unga roiya qilinsa bo'ldi. Uyqu bu vaqt o'tkazish emas, balki sog'lom bo'lish uchun kiritilgan eng muhim sarmoyadir.

4-qadam: zararli odatlardan voz kechish inson salomatligi hamda jismoniy faolligini yaxshilash uchun qo'yilgan dastlabki qadam hisoblanadi. Hozirgi kunda yoshlar orasida ham zararli odatlarni urf qilib olish holatlari ortib bormoqda. Eng ko'p va ommalashgan zararli odatlardan biri bu chekishdir. Sigareta va boshqa turdagi tamaki mahsulotlari o'pka, yurak-qontomir tizimi hamda onkologik kasalliklar xavfini bir necha barobar oshiradi.

Ayniqsa, yoshi ulg'ayib borayotgan inson uchun zararli odatlar tanaga ikki barobar ta'sir ko'rsatadi, chunki yosh ulg'aygan sari organizm zaiflashib, e'tibor va parvarish talab qiladi.

Chekish, spirtli ichimliklarni tez-tez iste'mol qilish, me'yordan ortiq ovqatlanish, kam harakatlilik – bularning barchasi yurak-qontomir kasalliklari, qon bosimining oshishi, nafas yetishmovchiligi va tez charchashga olib keladi. Natijada xizmat samaradorligi pasayadi, tiklanish jarayoni sekinlashadi.

Bugungi kunda harbiy tibbiyot mutaxassislari shuni ta'kidlamodaki, zararli odatlardan voz kechgan harbiy xizmatchining jismoniy holati barqaror, xizmatga tayyorgarligi

yuqori bo'ladi. Odatda, bunday zararli odatlardan voz kechish hamda ularning girdobiga tushib qolmaslikka foydali mashg'ulotlar bilan band bo'lish, bo'sh vaqtlarda badiiy va ilmiy kitoblarni o'qish va sport bilan muntazam shug'ullanib borish orqali erishish mumkin.

5-qadam: Ruhiy salomatlik, inson ruhiy holati faqat uning ichki kechinmalari bilan belgilanmaydi. Jamiyatdagi muhit, xizmat sharoiti va atrof-muhit ruhiy salomatlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uzoq yillar xizmat qilgan, mas'uliyati katta bo'lgan harbiy xizmatchilar bu ta'sirni yanada kuchliroq his qiladi.

Bugungi kunda jamiyatda axborot oqimi haddan tashqari ko'paygan. Yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, turli mish-mishlar inson ongini toliqtiradi. Doimiy tanqid, solishtirish, shoshilish kayfiyati ruhiy bosimni oshiradi.

Harbiy jamoalarda esa harbiy xizmat doimiy qat'iy intizom, mas'uliyat va ruhiy bosim, buyruq va javobgarlik, yuqori talab doimiy asabiy zo'riqishga sabab bo'lishi mumkin.

Yillar davomida to'plangan stress, xizmatdagi mas'uliyat va oilaviy tashvishlar inson ruhiyatiga sezilmay ta'sir o'tkazadi. Agar jamoada o'zaro hurmat, tushunish va qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, bu ruhiy charchoqni yanada kuchaytiradi.

Shu bois bugun sog'lom jamoa muhitini yaratish, ya'ni ochiq va hurmatli muloqot, adolatli munosabat, tajribali xizmatchilarning yoshlar bilan maslahatlashuvi ruhiy barqarorlikning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Inson toza havoda bo'lishi, yashil hududlarda sayr qilish, quyosh nuri va tabiiy yorug'likdan foydalanish, ish va dam olish muvozanatini saqlash, yetarli uyquga rioya qilish, bo'sh vaqtda foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, yaqin insonlar bilan suhbatni uzmaslik, xizmatdoshlar bilan ochiq muloqot qilish natijasida ruhiy stresslardan qutulish va sog'lom ruhiyatni shakllantirib borish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ruhiy salomatlik faqat shaxsiy masala emas, balki ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq. Ruhiy holat e'tibordan chetda qolsa, jismoniy sog'liq ham izdan chiqadi.

Sog'lom jamoa, tinch muhit va o'zaro hurmat mavjud bo'lgan joyda xizmat ham samarali, inson ham ruhiy jihatdan barqaror bo'ladi. Ruhiy jihatdan barqaror harbiy xizmatchi vaziyatni to'g'ri baholaydi, keskin holatlarda o'zini boshqara oladi hamda xizmat vazifasini sidqidildan bajaradi.

Yuqorida aytilgan besh omilga o'z vaqtida rioya qilgan insonlar sog'lom hayot kechirish uchun har tomonlama tayyor hisoblanadi, shunday ekan, bizlar ham sog'lom turmush tarziga rioya qilaylik hamda sog'lom kelajakni birga quraylik.

Tibbiy xizmat katta leytenantlari
F. NIYOZOV, Z. NURULLOYEV,
Mudofaa vazirligi Sanitariya-
epidemiologiya nazorati
markazi mutaxassislari

Yong'in xavfsizligi

Ma'rifat

KASBIY MAHORAT SINOVI



Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi yong'indan saqlash xizmati bo'linmalarining 2025/2026-o'quv yilining jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik dasturiga muvofiq, yong'in o'chirish guruhlarining yakuniy sinovlari o'tkazildi.

Sinovlarda shaxsiy tarkibning yong'in o'chirish jangovar hisobi bo'yicha majburiyatlari, birlamchi vositalar va texnik qurollarning tavsifini bilishi va ularni ishlata olishi bo'yicha bilimlari tekshirildi, shuningdek "Yong'in o'chirish saf tayyorgarligi" me'yorlari mashqlari amalda bajarildi.

Muddatli harbiy xizmatchilar yong'indan saqlash xizmati bo'linmalarida xizmati davomida ekstremal sharoitlarda sodir bo'lgan yong'inlarda qutqarish ishlarini amalga oshirish, yong'in o'chog'ini qurshab olish va bartaraf etish bo'yicha jangovar vazifalarni bajarishda mukammal bilim va mahoratga ega bo'lgan.

"Yong'in o'chirish saf tayyorgarligi" me'yorlarining yong'in o'chiruvchining jangovar kiyim va anjomlarini kiyish mashqini yakka tartibda oddiy askarlar Anvar Jo'rayev – 16,53, Murodjon Haydarov – 17,02 va Shukrullo Nurmuhammedov – 17,09 soniyaga bajarib, bu borada qay darajada ko'nikmaga ega ekanini namoyon etdi.

Sinov natijalari bo'yicha eng mohir yong'in o'chirish ekipaji deb, kichik serjant Shaxbozbek Doniyorov boshchiligidagi bo'linma topildi, ekipaj shaxsiy tarkibi belgilangan me'yorlarni xatosiz va mohirona bajarib, vaqt mezoni bo'yicha birinchi o'rinni egalladi.

Shuningdek, yong'in o'chirish ekipajlarining taktik imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularga qiyinlashtirilgan sharoitlarda shartli yong'inni bartaraf etish vazifalari belgilab berildi. O'tkazilgan amaliy-taktik mashqlar natijasida yong'in o'chirish ekipajlari shaxsiy tarkibining bilim va ko'nikmalari yanada oshishiga erishildi.

Podpolkovnik G'. YULDASHEV, HHMQ va HHK qo'mondonligi Moddiy-texnik ta'minot boshqarmasi yong'in xavfsizligi xizmati boshlig'i

IKKI ULUG' DAHO

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida "Ikki buyuk siymo, ikki ulug' daho" mavzusida ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Unda mahkama va joylardagi studiyalardan hududiy harbiy prokuraturalarning barcha xodimlari ishtirok etdi.

Videokonferens-aloqa shaklidagi muloqotda Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi pedagogika fanlari doktori, professor G'. Hamroyev bobokalonlarimiz – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi, huquq haqidagi qarashlari, yondashuvlari va asarlari mohiyati haqida ma'ruza qildi.

Ta'kidlanganidek, so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiyni har bir inson o'qib-o'rganishi lozim. Uning asarlarida ilgari surilgan adolat, halollik, vatanparvarlik g'oyalari bugungi kun uchun ham dolzarb.

Shuningdek, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridagi tarixiy, ilmiy ma'lumotlar, undagi Bobur hayoti va siyosiy faoliyati xususida to'xtalib o'tildi. Suhbat savol-javoblarga boy bo'ldi.

Tadbir "Sud-soliq ekspertizasining ahamiyati, uni o'tkazish tartibi va bunda zamonaviy texnologiyalarning o'rni" mavzusidagi mashg'ulotga ulanib ketdi.

Adliya mayori Ilyos ERGASHEV, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Muloqot

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORLARI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Bektemir tumanidagi 289, 290, 291 va 293-sonli umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida uchrashuvlar o'tkazildi.

Unda Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya hamda tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mas'ullari ishtirok etdi.

Muloqotlarda Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardiya tizimidagi oliy harbiy ta'lim muassasalariga va harbiy akademik litseylarga

o'qishga kirish tartibi, ulardagi zamonaviy sharoit, imkoniyat va imtiyozlar haqida tushuntirishlar berib o'tildi.

Yoshlarga ta'lim muassasalariga doir maxsus roliklar namoyish etilib, bukletlar tarqatildi.

Shu bilan birga, 345, 347, 348 va 358-sonli umumta'lim maktablarida Huquqni muhofaza

qilish akademiyasiga o'qishga kirish tartibi, yo'nalishlari, imkoniyat va imtiyozlar haqida ma'lumot berildi.

Adliya podpolkovnigi G'iyosiddin RAXMONOV, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

Huquqiy profilaktika

SHAROITLAR O'RGANILDI

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar va Ichki ishlar vazirliklarining Buxoro viloyatidagi qator harbiy tuzilmalarida o'rganishlar olib borildi.

Unda xizmat o'tash sharoitlari, yaratilgan qulayliklar, ta'minot turlari ahvoli, hududdagi qurilish-ta'mirlash ishlari va faoliyatga doir boshqa masalalarga e'tibor qaratildi.

Energiya tejamkorligini ta'minlash, byudjet mablag'lari maqsadli sarflanishi holatiga ahamiyat berildi. Jarayonda huquqbuzarliklar, jumladan korrupsiya holatlarining oldini olish borasidagi chora-tadbirlar natijalari bilan tanishildi.

Yakunda o'rganish natijalari tanqidiy ko'rib chiqilib, kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

Adliya mayori Maxmud ARTIKOV, Respublika Harbiy prokuraturasi bo'lim katta harbiy prokurori

Prokuror va yoshlar

VATANPARVARLIK TARANNUMI

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonligi, Yashnobod tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi va qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda 282-sonli umumta'lim maktabida "Prokuror va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi.

Unda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, internet va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish, shuningdek vatanparvarlik, harbiy xizmatning sharafi va mas'uliyati haqida batafsil so'z bordi.

Muloqot davomida o'quvchi-yoshlar Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga, shuningdek harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish tartibi, harbiy xizmatning muddatli va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi hamda kontrakt bo'yicha turlari,

qolaversa, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun yaratilgan imtiyozlar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Jarayonda bir guruh faollar va o'quvchilar diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Uchrashuv vatanparvarlik tadbiriga ulanib ketdi. Faxriy qorovul chiqishlari, harbiy xizmatchilarning saf va qo'ljangi namoyishi, harbiy va maxsus anjomlar ko'rgazmasi, Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli ijrosidagi

vatanparvarlikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar o'quvchi-yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Bu kabi tadbirlar, uchrashuv va muloqotlar navqiron avlodning huquqiy ongini yuksaltirishda, ularni turli yot g'oyalardan asrash va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adliya podpolkovnigi Alisher QURBONOV, Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

Sayyor qabul

INSON QADRI UCHUN

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbariyati bilan hamkorlikda olis hududlarda o'tkazib kelinayotgan ommaviy sayyor qabullar izchil davom ettirilmoqda.

Bu gal Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida o'tkazilgan ommaviy sayyor qabulda 200 dan ziyod harbiy xizmatchi, xodimlar, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar ishtirok etdi.

Dastlab ochiq muloqot o'tkazilib, yurtimizdagi islohotlar va ularning hayotiy ifodasi, harbiylar hamda ularning oila a'zolari uchun yaratilgan keng imkoniyat va imtiyozlar haqida atroficha so'z yuritildi.

So'ngra soha mutaxassislari tomonidan murojaatlar tinglanib, ularni joyning o'zida hal etish choralari ko'rildi.

Jarayonda qatnashchilarga huquqiy maslahatlar berilib, ko'rib chiqish muddat talab etadigan murojaatlar nazoratga olindi.

Adliya polkovnigi Akbar BOBOYEV, Buxoro harbiy prokurori



NAFOSAT

va mahorat tanlovi

Mamlakatimizda jamiyatning ajralmas qismi sanaladigan oilalar mustahkamligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Angren shahridagi harbiy qismda harbiy xizmatchilar oila a'zolari o'rtasida "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovining okrug bosqichi yuqori saviyada o'tkazildi.



Ayollarning iqtidori, zukkoligi, chaqqonligi va milliy qadriyatlarga sadoqatini namoyon etish maqsadida tashkil etilgan ushbu tanlovda turli yosh toifasidagi harbiy xizmatchilar oila a'zolari 5 ta shart asosida bellashdi. "Biz – baxtiyor ayollarmiz!" deb nomlangan birinchi shart tanishtiruvdan iborat bo'ldi. Ishtirokchilar o'z jamoalarini she'r, qo'shiq va sahna

ko'rinishlari orqali tanishtirdi. Har bir jamoa o'z shiori va ijodiy yondashuvi bilan tomoshabinlar qalbidan joy oldi. "Qadimgi milliy liboslar – madaniy merosimiz" sharti milliy qadriyatlarimizni targ'ib etishga qaratildi. Ishtirokchilar qadimgi milliy liboslarimizni namoyish etib, ularning tarixi va ahamiyati haqida ma'lumot berdi. Atlas, adras, beqasam kabi matolardan tikilgan liboslar ayollarimizning nozik didi va boy madaniy merosimizni aks ettirdi. Ushbu chiqishlar tomoshabinlarga o'zgacha zavq bag'ishladi.

Uchinchi shartdagi darts musobaqasida ishtirokchilar o'z chaqqonligi va aniqligini sinovdan o'tkazdi. Bu shartda ayollar nafaqat ijodkor va pazanda, balki epchil va mergan ekanini ham isbotladi. "Uddaburonlar" sharti nozik xilqat vakillarining jamoaviy hamjihatligini ko'rsatdi. Belgilangan vaqt ichida 30 dona pufakdan mukammal va chiroyli guldasta tayyorlash oson kechmagan bo'lsa-da, barcha jamoalar bu vazifani a'lo darajada bajardi.

So'nggi "Bahr-u bayt" shartida she'r va baytlar orqali bilim va hozirjavoblik talab etildi. Ushbu yo'nalish tadbirining eng maroqli va zavqli qismi bo'ldi. So'z san'ati, zukkolik va topqirlik yana bir bor ayollarimizning yuksak salohiyatini namoyon etdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rinni Nafosat Jo'rayeva (*Zangiota tumani*) egalladi. 2-o'rin Manzura Yoqubova (*Zangiota tumani*) va Gulnoza Minagmetova (*Chirchiq shahri*)ga nasib etgan bo'lsa, Mahfira Allaberganova (*Chirchiq shahri*) 3-o'ringa sazovor bo'ldi. Tanlov g'olibi vazirlik bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi va sovrindorlar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

"Balli, ayollar!" tanlovi nafaqat bellashuv, balki do'stlik, birdamlik va milliy qadriyatlarimizni ulug'lash bayramiga aylandi. Bu kabi tadbirlar ayollarimizning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati**

Ijtimoiy himoya

Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning muammolarini tizimli o'rganish hamda harbiy xizmatchilar oila a'zolarining bandligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar joylarda aniq natijalar bermoqda. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.



HARBIYLAR OILASI VA YOSHLAR — DAVLAT E'TIBORIDA

Shu maqsadda Andijon viloyati Xonobod shahrida joylashgan harbiy qismda harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash hamda mahalliy yoshlar muammolarini o'rganishga qaratilgan kompleks tadbir tashkil etildi.

Tadbir avvalida harbiy qismga birlashtirilgan, alohida e'tibor talab etiladigan yoshlar harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirildi.

Shuningdek, harbiy qurol-aslahalar va texnikalar namoyish etildi. Harbiy orkestr hamda faxriy qorovullarning ko'rgazmali chiqishlari ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Harbiy qism madaniyat markazida davom etgan uchrashuvda harbiy qism komandiri, Andijon harbiy prokurori, shahar hokimi va ichki ishlar bo'limi rahbariyati ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati xususida atroflicha ma'lumot berdi.

Uchrashuv yakunida harbiy xizmatchilarning oila a'zolari hamda alohida ishlash talab etiladigan yoshlar uchun sayyor qabul tashkil etildi. Murojaatlar tinglanib,

ayrim masalalar joyida hal etildi, qo'shimcha o'rganish talab etilgan murojaatlar esa tegishli tashkilotlar nazoratiga olindi.

Bunday tadbirlar harbiy xizmatchilar va yoshlar bilan ochiq muloqotni mustahkamlash, ularning ijtimoiy muammolarini tizimli hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

TOQQQ matbuot xizmati

Festival

XALQARO NAMANGAN AVTOFESTIVALI O'TKAZILDI



Namangan shahrida II Xalqaro Namangan avtofestivali o'tkazildi. Viloyat hokimligi va mutasaddi tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan mazkur tadbirda retro va zamonaviy avtomobillar ko'rgazmasi, avtosport va karting musobaqalari, avtomobil ta'mirlash va ehtiyot qismlarni tezkor almashtirish bo'yicha bellashuvlar hamda tyuning qilingan avtomobillar ishtirokidagi avtoparad namoyish etildi.

Respublikada ikkinchi marotaba o'tkazilgan ushbu nufuzli tadbir o'zining jozibadorligi bilan viloyat aholisi va chet ellik mehmonlar yodida qoldi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Namangan viloyati kengashi tomonidan festival doirasida o'tkazilgan karting bo'yicha xalqaro musobaqa ekstremal sport muxlislarining olqishlariga sazovor bo'ldi. Unda bu gal nafaqat professional sportchilar, balki viloyatda faoliyat yuritayotgan OAV xodimlari va bloggerlar ham o'z kuchlarini sinab ko'rdi.

Qizg'in bellashuvlarda ishtirokchilardan turli to'siqlardan mohirona o'tish va tezkorlikda harakatlanish talab etildi. Jurnalistlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

1-o'rin: Tohirjon Tursunov va Oqiljon Mamajonov;

2-o'rin: Rahimjon Mamadaliyev va Ulug'bek Boqijonov;

3-o'rin: Firdavs Jo'raqulov va Shukurjon Hakimboyev.

Professional sportchilar o'rtasida o'tkazilgan bellashuv natijalariga ko'ra, 1-o'rinni Azizmurod Muhammadjonov va Yasmina Egamberdiyeva, 2-o'rinni tojikistonlik mehmonlar Samon Bahromzoda va Idris Fayzullayev egalladi. 3-o'rin esa Rustam Bekmanbekov, Melena Kleynga nasib etdi.

Festival davomida tashrif buyuruvchilarga "Vatanparvar" tashkilotining "Motokross", "Karting", "Triatlon", "Biatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Raketamodel", "Aviamodel" va "Radiosport" bo'yicha seksiyalarining ko'rgazmalari namoyish etildi.

O'zbekiston kubogi



AVTOKROSS MUSOBAQALARI MAVSUMI BOSHLANDI

Samarqand viloyati Urgut tumanining Birlik mahallasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan avtokross bo'yicha O'zbekiston kubogi birinchi bosqich musobaqasi o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 51 nafar sportchi "A-7", "A-8", "NU" va "Baggi" sinflarida sport avtomobillarida belgilangan masofaga harakatlandi.

Ikki kun davomida qizg'in va murosasiz kechgan ekstremal musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"Baggi" sinfida:

1-o'rin: G'ayrat Odilov (Jizzax v.);

2-o'rin: Elyor Mullajonov (Sirdaryo v.);

3-o'rin: Odiljon Norqo'ziyev (Sirdaryo v.).

"A-7" sinfida:

1-o'rin: Asliddin Siddiqov (Samarqand v.);

2-o'rin: Jamshid G'aniyev (Jizzax v.);

3-o'rin: O'tkir Norov (Qashqadaryo v.).

"A-8" sinfida:

1-o'rin: Nikolay Sayev (Jizzax v., "Best club" jamoasi);

2-o'rin: Murod Eshonqulov (Samarqand v.);

3-o'rin: Furqat Ahrorqulov (Jizzax v., "Best club" jamoasi).

"NU", ya'ni Milliy sinfda:

1-o'rin: Samandar Xusanov (Jizzax v.);

2-o'rin: Furqat Ahrorqulov (Jizzax v.);

3-o'rin: Akmal Jo'rayev (Andijon v.).

Umumjamoa hisobida:

1-o'rin: Jizzax viloyati;

2-o'rin: Samarqand viloyati;

3-o'rin: Jizzax viloyatining "Best club" jamoalari.

G'oliblikni va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom va kuboklari bilan taqdirlandi.



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Tog' tayyorgarligi

BELOIRSOY PETROGLIFLARI YOKI QOYATOSH RASMLARI

Petrogliflar – bu tosh va qoyalarga chizilgan qadimiy tasvir (o'yma naqsh, sur'at)lar bo'lib, ular paleolit (tosh davri)dan o'rta asrlargacha ibtidoiy odamlar tomonidan yaratilgan va qadimgi insonlarning madaniyati, e'tiqodlari va kundalik hayoti haqida ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

Bunday yodgorliklar O'zbekistonning ko'pgina hududlarida tarqalgan. Ularni Chimyon, Xo'jakent, Tereksoy, Boshqizilsoy va boshqa tog'li hududlarda uchratish mumkin. Petrogliflarning eng mashhur to'plami, albatta Nurota tog'laridagi Sarmishsoy darasidir. Qoyatosh rasmlarining ba'zilari o'rganilgan va YUNESKO kabi tegishli tashkilotlar himoyasida bo'lsa, boshqalari shunchaki e'tiborsiz qoldirilgan. Ushbu mingyillik rasmlar ustiga sayyohlarning tashrif sanalari yoki ismlar o'yib yozilgan.

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanining Chimyon va Beldirsoy dam olish zonalari atrofida ibtidoiy davr yodgorligi – Beldirsoy petrogliflari mavjud. Ba'zi manbalarda ular Kumbel petrogliflari sifatida tilga olinadi. Suv sathidan 2 450 metr balandlikda joylashgan ushbu qoyatosh rasmlari O'zbekiston va qo'shni davlatlar hududida yashagan qadimgi insonlarning madaniyati va turmushidan dalolat beruvchi ko'plab dalillardan biridir.

Taxminlarga ko'ra, qoyatosh rasmlarining yoshi 6–10 ming yil oralig'ida bo'lib, bu neolit davriga to'g'ri keladi.



Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti kursantlari bilan tog' tayyorgarligi bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar doirasida Beldirsoy petrogliflari, 6–10 ming yil oldin yashab o'tgan insonlarning madaniyati, e'tiqodlari va kundalik hayoti haqida ma'lumot berdik.

Podpolkovnik Zohid SHOMUROTOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti katta o'qituvchisi

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Koson tumani o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida yoshlar bandligini ta’minlash, ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida tizimli ishlar bajarilmoqda.



TIZIMLI ISHLAR SAMARASI

Xususan, tumandagi mavjud umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini harbiy kasbga yo'naltirish, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida "Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir va ochiq eshiklar kuni o'tkazildi. Bundan tashqari, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida Navro'z umumxalq bayrami oldidan o'quvchi-yoshlar o'rtasida turli mavzularda ko'rik-tanlovlar, sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha sport musobaqalari hamda yo'l harakati targ'iboti bo'yicha aytotashviqot karvoni tashkil etildi.

– Ushbu muhim sana munosabati bilan o'tkazilayotgan uchrashuv, tadbirlarda keng jamoatchilik vakillari, harbiy xizmatchilar hamda faxriylar faol ishtirok etmoqda, – deydi markaz direktori Sardorbek Qurbonov. – Tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan bunday tadbirlarda yoshlarning keksa avlod vakillari bilan uchrashuvi o'ziga xos

an'anaga aylangan. Chunchi,
"Vatanparvarlik oyligi" doirasida
tashkil etilgan barcha tadbirlar bu
borada olib borilayotgan ishlarimiz
sirasidan.

Shuningdek, ayni paytda markazda ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun tashkilotda barcha qulay imkoniyatlar yaratilgan. Bunday shart-sharoitlar, o'z navbatida, tinglovchilar uchun "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilik kurslarida tahsil olishlari hamda bilim va

ko'nikmalarini oshirishda qo'l kelmoqda. Ayniqsa, markazda yaqinda foydalanishga topshirilgan "B" toifali haydovchilar tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar olib borish uchun zamonaviy talablarga mos ravishda bunyod etilgan o'quv avtodromi mazkur toifa bo'yicha

o'qiyotgan tinglovchilar
uchun amaliy mashg'ulotlarda
foydalanilmoqda.

Bundan tashqari, tashkilotda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada markaz terma jamoasi shakllantirilib, ularning nufuzli



musobaqalarda ishtiroki ta'minlanayapti. Masalan, markaz a'zolaridan iborat "Turon arslonlari" jamoasi o'tgan yili o'tkazilgan "Shunqorlar" harbiy sport musobaqasining mamlakat bosqichida ishtirok etib, faxrli o'ringa sazovor bo'ldi.

Ayni paytda tashkilotda yoshlar sportning texnik va amaliy turlaridan "Havo miltig'idan o'q otish", "Duatlon", "Karting" kabi muhim turlari bilan shug'ullanib kelmoqda. Hozirda seksiyalardagi ishtirokchilar soni 50 nafardan ziyod yoshni tashkil etmoqda.

Akbar ALLAMURODOV



Buni bilarmidingiz?

MUSIQANING

ruhiyatga ta'siri

Gippokrat ham musiqa sadolarining inson organizmiga ta'siri haqida gapirib o'tgan. Maxsus kuylar yordamida qadim zamonlarda tabiblar tutqanoq va bosh og'rig'ini davolagan.

Umuman, hozir ham odamlarga musiqa yetarlicha ta'sir o'tkazadi. Muhimi – to'g'ri tanlov qilishda.

ISHXONADA

Olimlar past tovushda qo'yilgan musiqa ishchanlikni o'rtacha 10 foizga oshiradi va hamkasblarga nisbatan xato qilish darajasini kamaytiradi, deyishmoqda. Klassik kuylar ishchanlikni oshiradi. Mantiqan fikrlashda Betxoven kuylari yordam beradi. Muhim ma'lumotlarni eslab qolishda esa Motsart asqatadi. Charchoqdan xalos bo'lish uchun Chaykovskiy va Bax, ijodiy ishlarda Shopen va Ravel musiqiy asarlari tavsiya etiladi. Agar ishingiz doimiy stresslarga sabab bo'lsa, sizga Shtraus valslari yoki Shostakovich musiqalari yordam beradi. Ular asab tizimini tinchlantiradi.

SPORT ZALIDA

Sport bilan shug'ullanish paytida ham, albatta, musiqa tinglaysiz. Professional sportchilar musobaqadan oldin, atayin maxsus musiqalarni tinglaydi. Izlanishlarga ko'ra, bu sportdagi natijalarni 12 foizga oshirar ekan. Startdan oldin past notalarda yozilgan kuyni eshitish, ayni muddao. Bas kompozitsiyalar iroda kuchiga ishonch bag'ishlaydi.

Mashg'ulotlar davomida esa daqiqasiga 100–120 zarbli tempdagi shoshqin musiqalarga e'tibor qaratish kerak. Bunday chastota yurak dukuri bilan uyg'un bo'lib, mashg'ulotlarning yanada samarali o'tishiga yordam beradi, charchoqni chiqaradi.

AVTOMOBILDA

Mutaxassislar mashina haydash chog'ida musiqani pasaytirishni maslahat beradi. Bu tushunarli albatta: baland musiqa boshqa ulovlarning signallarini eshitishga halal beradi. Salondagi shovqin avtomobilni boshqarishda yanglishishlar yuz berishiga sabab bo'ladi. Mashinadagi musiqa ritmi va janri haydovchilik qobiliyati kuchayishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Ma'lum bo'lishicha, haydovchi qo'shiq kuylasa, uning tezligi pasayadi va e'tibori bo'linadi.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

OSHXONADA

Parhez tutadigan insonlar sokin holatda ovqatlangani durust. Ma'lum bo'lishicha, musiqa tovushi ishtahani qitiqlaydi. Ayniqsa, jaz va xip-xop ko'proq taom yeyishga undaydi. Bu musiqa janri miyaning kerakli nuqtalariga ta'sir o'tkazib, taomning yanada mazali tuyulishiga sabab bo'ladi, bu esa ortiqcha kaloriyalarni qabul qilinishiga olib keladi.

Klassik musiqa yeguliklar borasida u qadar "mazali" taassurot qoldirmaydi, ammo cho'ntagingizga zarar keltirishi hech gap emas, ayniqsa siz restoran va tamaddixonaga kirgan bo'lsangiz. Gap shundaki, klassik qo'shiqlar sizni qimmatroq taomni buyurtma qilishga undaydi. AQSh olimlari o'tkazgan tajribalar shunday kechdi: qahvaxonaga kirgan xo'randalarning bir qismi sokinlikda, bir qismi estrada, bir qismi esa klassik qo'shiqlar tinglab ovqatlanishdi. Oxirgi guruh vakillari qimmatga tushdi. Ayniqsa, Motsart, Shubert, Betxovenning kuylari yanada ko'proq xarj qilishga undaydi.

Xullas, kim tushlikni tejash, qomatini saqlashni istasa, musiqa tanlashda ehtiyot bo'lishi kerak. Bunday vaziyatda sizga Vivaldining kuyi qo'l keladi. Bu musiqa ochlik hissin kamaytiradi.

YOTOQXONADA

Uxlay olmayapsizmi? Unda uyqudan oldin jaz yoki folk tinglang. Britan olimlari uyqusizlikdan qiynaladigan qariyalar o'rtasida tajriba o'tkazdi. Ma'lum bo'lishicha, sukunatda yotish tezroq uxlashning eng maqbul yo'li emas ekan. Agar xonada past tovushda qo'yilgan jaz kuylari taralib tursa, sizni uyqu elita boshlaydi.

Kanadalik olimlar britaniyalik hamkasblarini to'la quvvatlaydi. Bundan tashqari, ularning fikricha, inson uyquga ketgandan so'ng ham musiqani o'chirmaslik kerak. Sababi past musiqa sadolari odamning

xotirasini mustahkamlaydi. Mutaxassislar shunday test o'tkazishdi: uyqu vaqtida odamlarga bir necha xorijiy kuylar qo'yib berildi. Tunbo'yi musiqa tinglab uxlagan odamlarning jimjitlikda uxlaydigan odamlarga nisbatan so'zlarni eslab qolish qobiliyati oshgani ma'lum bo'ldi.

YOLG'IZLIKDA

Derazadan tashqarini kuzatar ekansiz, pleyerni olib, musiqa tinglashga qaror qilsangiz, g'amgin qo'shiqlarni tanlang. Ma'lum bo'lishicha, g'amgin sadolar sho'x qo'shiqlarga nisbatan g'am-anduhni yengishga ko'proq yordam beradi. Ruhshunoslarning aytishicha, g'amgin qo'shiqlar odamni tinchlantiradi, ruhini yengil qiladi. Ma'yus kuylar negativ tuyg'ulardan xalos bo'lishga ko'mak beradi. Ular odamning xavotiri, xayollari va tuyg'ularini baholash va tahlil qilishda qo'l keladi.

Yodda tuting! Germaniyalik olimlar izlanishlaridan ma'lum bo'ldiki, turli musiqa asboblari taraladigan kuylar inson organizmiga turlicha ta'sir etarkan. Masalan:

arfa – yurak faoliyatini yaxshilaydi;
baraban – qon aylanishini yaxshilaydi;

saksofon – ishtiyoqni kuchaytiradi;
skripka – kayfiyatni ko'taradi;
argan – osteoxondrozidagi og'riq hissin kamaytiradi;

fortepiano – moddalar almashinuvini yaxshilaydi.

Ko'rib turganingizdek, inson hayotida musiqaning o'rni nihoyatda kuchli. Faqat tanlovda adashmasangiz bas. Go'zal musiqa tinglang va hayotingiz ham chiroyli bo'lsin!

Mayor Jo'rabek NAZAROV,
Chirchiq garnizoni
Ma'naviyat va ma'rifat
markazi harbiy orkestr
boshlig'i



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Alisher Ergashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi:

podpolkovnik

Gulnora Xodjamuratova

Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev

Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: 417

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 076 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Muruvvatli-dil press" MChJ mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"Muruvvatli-dil press" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani "Nafosat" MFY Qatortol ko'chasi, 21-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@gmail.com

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

www.youtube.com/c/UzArmiya